

O`zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi



QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

“OZIQ-OVQAT SIFATINI BAHOLASH”

FANIDAN MA’RUZA MATNLARI TO’PLAMI



Qarshi-2023

ANNOTATSIYA

«Oziq-ovqat sifatini baholash» fanidan ma’ruza matnlari to’plami Sanoat texnologiyasi 5321000-Oziq-ovqat texnologiyasi (don mahsulotlari) yo’nalishida ta’lim olayotgan bakalavr 3-bosqich talabalari uchun, o‘quv rejasiga asosan 16 o‘quv soati hajmida o‘qishga mo‘ljallab, tayyorlangan 7 ta ma’ruzani o‘z ichiga oladi. Ma’ruzalar matni oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini nazorat qilish, mahsulotlarni sertifikatlash, standart ko’rsatkichlarini nazorat qilish va xavfsizlik meyyorlarini o‘rgatadi.

Tuzuvchi: Z.D.Xolmurodova - QarMII “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasi dotsent v.b.

Taqrizchilar: D.T.Atakulova- QarMII, “Oziq-ovqat mahsulotlar texnologiyasi” kafedrasi dotsenti.

A.A.Abdiyev - "TIQXMMI"MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i

Ushbu ma’ruza matnlari to’plami “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasi yig’ilishida (bayonnomma №_____ 2023 y), Muhandislik texnologiyasi fakulteti uslubiy komissiyasida (bayonnomma №_____ 2023y) va Institut Uslubiy Kengashida (bayonnomma №_____ 2023 y) muhokama etilgan va o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Kirish

Inson iste'mol qilgan taomlari hisobidan o'nadi, o'sadi va ijtimoiy faoliyat ko'rsatadi. Uning sog'lig'i va umri iste'mol qilinadigan taom va boshqa mahsulotlar sifatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ularning sifatiga katta ahamiyat beriladi. Barcha rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahsulot, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari, sifati faqat standartlashtirish, sertifikatlashtirish va uni boshqarish faoliyatini o'zluksiz o'tkazish orqali ta'minlanadi. Mahsulot sifatini ta'minlashga uning sifat va gigienik ko'rsatkichlarini me'yorlashtirish va ma'lum bir miqdorlarda chegaralash orqali erishiladi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari halqlari o'zaro hamkorliksiz yashashlari qiyin, chunki bir mamlakat o'zida yetishmaydigan mahsulotlarni boshqalaridan olsa, boshqalar esa o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning oshiqcha qismini boshqa mamlakatlarga sotadi. Bundan tashqari bir mamlakatda erishilgan fan, texnika va ilg'or tajriba yutuqlaridan dunyoning barcha mamlakatlari ham manfaatdor bo'ladi. Demak, dunyo mamlakatlari o'rtasida xalqaro savdo-sotiq ishlari, ilmiy texnikaviy hamkorlik mavjud bo'ladi va bundan keyin ham davom etadi. Mamlakatlar hamkorligida xalqaro bozorga chiqariladigan mahsulot va xizmatning sifati o'ta katta ahamiyatga ega, chunki xalqaro bozor raqobatida faqat yuqori sifatli va narxi nisbatan past mahsulot yutib chiqadi.

Ichki bozorda va mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishda hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilishda mahsulot yoki xizmatning sifati bilan bog'liq texnikaviy to'siqlar va muammolar kelib chiqishi mumkin. Mahsulot sifati bilan bog'liq texnikaviy to'siqlar va muammolar uning sifat va gigienik ko'rsatkichlarini xalqaro, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning standartlari va bugungi kundagi ichki va tashqi bozor talablari bilan uyg'unlashtirilgan standartlar hamda mahsulot sifati bilan bog'liq boshqa me'yoriy hujjalarni amalga kiritish orqali bartaraf qilinadi.

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishga intilayotgan hamda xom ashyo bazasidan tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan mamlakatga aylanishga harakat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun katta ahamiyatga ega. Uning jahon bozorida va iqtisodiy hamkorlikda o'ziga loyiq joyni egallashi uchun barcha sharoitlari (resurslari, qulay iqlim sharoiti va moddiy-texnikaviy bazasi) mavjud.

1-Mavzu; Kirish. Fanning maqsad va vazifalari. Standartlashtirish va sifat Reja;

1. Fanning maqsad va vazifalari
2. Standartlashtirishning asosiy vazifalari:
3. Standartlashtirish asosiy tamoyil va talablari
4. Sifat bo'yicha asosiy atamalar va tushunchalar.

Inson iste'mol qilgan taomlari hisobidan o'nadi, o'sadi va ijtimoiy faoliyat ko'rsatadi. Uning sog'lig'i va umri iste'mol qilinadigan taom va boshqa mahsulotlar sifatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ularning sifatiga katta ahamiyat beriladi. Barcha rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahsulot, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari, sifati faqat standartlashtirish, sertifikatlashtirish va uni boshqarish faoliyatini o'zluksiz o'tkazish orqali ta'minlanadi. Mahsulot sifatini ta'minlashga uning sifat va gigienik ko'rsatkichlarini me'yorlashtirish va ma'lum bir miqdordarda chegaralash orqali erishiladi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari halqlari o'zaro hamkorliksiz yashashlari qiyin, chunki bir mamlakat o'zida etishmaydigan mahsulotlarni boshqalaridan olsa, boshqalari esa o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning oshiqcha qismini boshqa mamlakatlarga sotadi. Bundan tashqari bir mamlakatda erishilgan fan, texnika va ilg'or tajriba yutuqlaridan dunyoning barcha mamlakatlari ham manfaatdor bo'ladi.

Demak, dunyo mamlakatlari o'rtasida xalqaro savdo-sotiq ishlari, ilmiy texnikaviy hamkorlik mavjud bo'ladi va bundan keyin ham davom etadi. Mamlakatlar hamkorligida xalqaro bozorga chiqariladigan mahsulot va xizmatning sifati o'ta katta ahamiyatga ega, chunki xalqaro bozor raqobatida faqat yuqori sifatli va narxi nisbatan past mahsulot yutib chiqadi. Ichki bozorda va mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishda hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilishda mahsulot yoki xizmatning sifati bilan bog'liq texnikaviy to'siqlar va muammolar kelib chiqishi mumkin.

Mahsulot sifati bilan bog'liq texnikaviy to'siqlar va muammolar uning sifat va gigienik ko'rsatkichlarini xalqaro, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning standartlari va bugungi kundagi ichki va tashqi bozor talablari bilan uyg'unlashtirilgan standartlar hamda mahsulot sifati bilan bog'liq boshqa me'yoriy hujjalarni amalga kiritish orqali bartaraf qilinadi. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishga intilayotgan hamda xom ashyo bazasidan tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan mamlakatga aylanishga harakat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun katta ahamiyatga ega. Uning jahon bozorida va iqtisodiy hamkorlikda o'ziga loyiq joyni egallashi uchun barcha sharoitlari (resurslari, qulay iqlim sharoiti va moddiy-texnikaviy bazasi) mavjud.

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati - bu uning maqsadli foydalanishga muvofiq ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun yaroqliliginи belgilaydigan mahsulot xususiyatlarining yig'indisidir. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati standartlar talablariga

javob berishi kerak. Har qanday oziq-ovqat mahsulotining sifati ko'rsatkichlari deb ataladigan xarakterli xususiyatlari bilan belgilanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini shakllantirish va saqlashga eng muhim ta'sir xom ashyoning turi va sifati, ishlab chiqarish usullari va shartlari, qadoqlash va idishlarning holati, tashish va saqlashdir.

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati organoleptik va o'lchash (laboratoriya) usullari bilan aniqlanadi.

Organoleptik usul mahsulot sifatini hislar: ko'rish, teginish, hid va eshitish yordamida aniqlaydi. Ushbu usul mahsulotning ta'mini, rangini, hidini, tuzilishini va tashqi ko'rinishini belgilaydi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida bu usul asosiy hisoblanadi va sifati shubhali bo'lgan mahsulotni sinovdan pishirish yoki qovurish bilan to'ldiriladi.

Ba'zi mahsulotlarning (pishloq, sariyog ') sifati to'g'risida ob'ektiv xulosa chiqarish uchun reyting joriy etildi. Uning mohiyati shundan iboratki, mahsulot sifati mahsulotdagi nuqsonlar uchun chegirmalarni hisobga olgan holda organoleptik ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lum miqdordagi ballar yig'indisi bilan baholanadi. Shu bilan birga, mahsulot sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar ta'mi va hididir. Olingan ballar asosida mahsulotning tijorat darajasi aniqlanadi.

O'lchov (laboratoriya) usuli asboblar, reagentlar yordamida fizik (o'ziga xos og'irlilik, mahsulotlarning zichligi, ularning erish va muzlash harorati, yopishqoqligi), kimyoviy (namlik, oqsillar, yog'lar, uglevodlar, organik kislotalar, minerallarning massa ulushini aniqlashga imkon beradi. , zararli va zaharli aralashmalar), mikrobiologik (patogen va buzuvchi mikroblarning mavjudligi), fiziologik xususiyatlar, energiya qiymati, hazm bo'lishi, mahsulotning oziq-ovqat xavfsizligi va boshqalar.

Standart so'zi inglizcha "Standard" so'zidan olingan bo'lib, me'yor, o'lcham, andoza degan ma'nolarni bildirib me'yoriy hujjat nomi bilan yuritiladi.

Standart - bu ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarda eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga yoki natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror qo'llaniladigan qoidalar, umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatdir.

Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan va jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Standartlar darajasiga qarab, xalqaro, mintaqaviy davlatlararo, milliy va korxona miqyosida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat standartlari mahsulotni ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga qo'yish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatli turlarini yaratish va o'zlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste'molchi oralaridagi munosabatlarni yaxshilashga yo'naltirilgan. Standartlashtirish tizimi yangi buyumga o'z vaqtida yuqori sifatli loyiha - konstruktorlik hujjatlar berish,

korxonaning yangi mahsulotini berilgan sifat ko‘rsatkichlariga asosan tayyorlashni va kerak bo‘lsa mahsulotning ishlab chiqarishdan olib tashlashni belgilaydi.

Standartlashtirish mahsulot muomalada bo‘lganida va sotish bosqichlarida mahsulotni joylashtirish (upakovka) da yaxshi tartib va sharoitlar yaratishga, yuklashga va joylashtirishga, saqlashga, omborlarda mahsulot sifatini buzilmay saqlashga, transportda olib yurishda, buyumni tarqatish, sotish tashkilotlariga talablar belgilaydi.

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning (keyingi o‘rinlarida mahsulotlar deb yuritiladi) aholining hayoti, salomatligi va mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste’molchilarning va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- mahsulotlarning o‘zaro bir-birining o‘rnini bosishi va bir-biriga monandligini ta’minlash;
- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek, aholi va xalq xo‘jaligining ehtiyojlariga muvofiq mahsulotlarning sifati hamda raqobatbardoshligini oshirish;
- resurslarning barcha turlarini tejashga, ishlab chiqarishning texnikaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ko‘maklashish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;
- tabiiy va texnogen falokatlar va boshqa favqulotda vaziyatlar yuzaga kelishi, havf-xatarni hisobga olgan holda xalq xo‘jaliqi ob’ektlarining xavfsizligini ta’minlash;
- iste’molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi va sifati to‘g‘risidagi to‘liq va ishonarli axborot bilan ta’minlash;
- ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijro etuvchi) ma’lum qilgan mahsulot sifati to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarini tasdiqlash.

Standartlashtirishning asosiy vazifalari:

- iste’molchi va davlatning manfaati yo‘lida mahsulotning sifati va nomlariga nisbatan eng maqbul talablarni qo‘yish;
- davlat, respublika fuqarolari va chetel ehtiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga kerakli talablarni belgilovchi me’yoriy hujjatlar tizimini va uni ishlab chiqish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo‘llash, shuningdek hujjatlarda unumli foydalanishni nazorat qilish;
- standart talablarining sanoati rivojlangan chet mamlakatlarning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlari talablari bilan uyg‘unlashuvini ta’minlash;
- bir-biriga mosliligining barcha (konstruktiv, elektrik, elektromagnitli, informatsion, dasturli va boshqalar) turlarini, shuningdek mahsulotning o‘zaro almashuvchanligini ta’minlash;
- parametrik va turlar o‘lchovi qatorlarini, tayanch konstruksiyalarni, buyumlarning konstruktiv jihatdan bir xil qilingan modullashgan bloki tarkibiy qismlarini aniqlash va qo‘llash asosida bixillashtirish;
- mahsulot, uning tarkibiy qismlari, buyumlari, xomashyo va materiallar ko‘rsatkichlari va tavsiflarining kelishib olinishi va bog‘lanishi;

- material va energiya sig‘imini kamaytirish, kam chiqindi chiqaruvchi texnologiyalarni qo‘llash;

- metrologik me’yor, qoida, nizom va talablarning belgilanishi;

- standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tajribadan foydalanishni keng avj oldirish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishini kuchaytirish;

Standartlashtirish asosiy tamoyil va talablari

Standartlashtirishning asosiy tamoyillari quydagilardan iborat.

1. Bir-birini o‘rnini bosish bo‘yicha barcha sanoat mahsulotlariga taalluqli umumiyl me’yorlar.

2. Bir xil guruh mahsulot yoki muayyan mahsulotga taluqli bir-birini o‘rnini bosish bo‘yicha me’yorlar.

Umumiy o‘zaroalmashuvchanlik normalariga mahsulotning geometrik va funksional almashuvchanlik talablari kiradi (parametrik va tiplash qatorlari, bir xillashtirish detallari, markalar va boshqalar).

O‘zaro almashuvchanlik talablari, funksional, geometrik, o‘lchash, biologik, elektromagnit, elektrik, mustaxkamlik, dasturiy, texnologik, metrologik, diagnostik, informatsion jabxalarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga ob’ektlarning atrof-muhitlari bilan o‘zaro aloqa qilishni xisobga oladi. 2000 yildan boshlab favqulotdagi vaziyatlar Vazirligida xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha ko‘riladigan choralarini standartlashga kirishdi.

Favqulotda vaziyatlar, ularning kelib chiqish sabablari bo‘yicha tasniflashtirildi: tabiiy, texnogen, ekologik va bu vaziyatlarda jabrlangan odamlar soniga, material zararining kattaligi va mashtabiga qarab. Mahalliy, lokal, respublika va chegaralararo.

Tabiiy favqulotdagi vaziyatlar, xavfli geologik, gidrologik, meteorologik, epidemiologik jarayonlarni ta’sir etish manbalari kabi faktorlarini aniqlanishi ko‘rsatilgan.

O‘lchash birligini ta’minalash. Respublikada o‘lchash birligini meyoriy hujjatlar kompleksi bilan ta’milanadi:

—standartlashtirishni ilmiy-metodik va texnik asoslarni ishlab chiqish va rivojlanish yo‘nalishini aniqlash va o‘rnatish.

—Mahsulotning asosiy ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, qabul qilish va sinov usullariga asosiy talablarni aniqlash va standartlashtirish.

—Mahsulot va xizmatlarning sertifikatlash bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish va asoslarni ishlab chiqish;

—Yangi usul va oliy aniqlik vostalarini yaratish va ularning mavjudligini takomillashtirish.

—Standartlar va texnik shartlarni tatbiq etish va ularga amal qilish o‘lchash texnikasining holati va uning qo‘llanishi ustidan davlat tomonidan nazorat qilish bo‘yicha qonuniy, huquqiy asoslarni ishlab chiqish;

—Sanoat maxsulotini attestasiyasi bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish, koordinasiya qilish va asoslarni ishlab chiqish;

Standartlashtirishning asosiy prinsiplari quyidagilar:

— Me'yoriy hujjatlarni ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy zarurati va maqbulligini inobatga olgan holda ularni ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi;

—Ob'ektlarga qo'yiladigan talablarni kelishib olish va meyoriy xujjatlarni amalga joriy etish muddatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan metrologik ta'minlashni qo'shib hisoblab o'zaro bog'langan ob'ektlarni standartlashtirishning kompleksligi;

—Me'yoriy hujjatlarni fan va texnikani hozirgi zamon yutuqlari ilg'or tajribaga qonun hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash;

—Standartlashtirishning hamma bosqichlarida me'yoriy hujjatlarni o'zaro bog'liqligini va kelishilganligi, boshqarishning barcha pog'onalarida ularni o'xshash ob'ektlari uchun qaytadan ishlab chiqilmasligi;

—Amaldagi me'yoriy xujjatlar, standartlashtirish bo'yicha dasturlar va ish rejalarini to'g'risidagidagi axborotlarni oshkorraliligi;

—Ko'pchilik daxldor tomonlarning kelishuviga erishish asosida me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash;

—Me'yoriy hujjatlarning sertifikatlashtirish maqadlari uchun yaroqliligi;

“Standartlashtirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni Prezidentimiz tomonidan 1993 yilning 28 dekabrida imzolangan “Standartlashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni standartlashtirish bo'yicha qoidalar, me'yoriy hujjatlar, standartlar ustidan davlat nazorati, unga doir ishlarning moliyaviy ta'minoti va ularning hayotga tadbiq etilishi, standartlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazishning yanada yuqoriqo rivojlanish bosqichiga ko'tarilishiga asos bo'ldi.

“Standartlashtirish to'g'risida” qonun 4 bo'limdan iborat bo'lib, bu bo'limlar 12 moddani o'z ichiga olgan. Respublikamizda standartlashtirish tizimi, standartlashtirish ishlarini o'tkazish, qonun hujjatlari, xalqaro shartnomalar, me'yoriy hujjatlar, davlat nazorat organlari, davlat inspektorlari, ularning huquqlari va javobgarligi, standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta'minoti, standartlarni qo'llashni rag'batlantirish bo'yicha keng ma'lumotlar berilgan.

Qonunga muvofiq standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiyligi qoidalarini, manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari bilan olib boriladigan hamkorlikdagi ishining shakl va usullarini “O'zstandart” agentligi belgilaydi.

Respublikamizda standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiyligi texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, qonunga muvofiq davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida standartlar va texnik shartlarni ushbu qonunni qo'llashga doir yo'riqnomalar va izohlarni ishlab chiqadilar, tasdiqlaydilar, nashr etadilar. Standartlarni nashr qilish

va qayta nashr etishni ularni tasdiqlagan organlar amalga oshiradilar. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir me'yoriy hujjatlar, shuningdek standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini ishlab chiqish va qo'llash tartibi “O'zstandart” tomonidan belgilanadi.

Qonunning II bo‘lim 6-moddasiga binoan standartlashtirishga doir me’yoriy hujjatlar vatanimiz hamda chet el fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslangan va O‘zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat qila olish imkonini ta’minalash uchun asosli hollarda standartlarda istiqbolga mo‘ljallangan, an’anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablar belgilab qo‘yilishi alohida ko‘rsatilgan.

Qonunda davlat yo‘li bilan standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta’minti, mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan va mahsulotlarni standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alash huquqini olgan xo‘jalik faoliyati sub’ektlarini iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston hududida yuritiladigan me’yoriy hujjatlar: “O‘zstandart” agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

- Davlatlararo standart – GOST
- O‘zbekiston davlat standarti – O‘z DSt
- Umum davlat klassifikatori – O‘z DT
- Normalar va qoidalar
- O‘zbekiston rahbariy hujjati – O‘z RH
- Tavsiyalar – O‘z T

Tarmoqlar bo‘yicha yuritiladigan me’yoriy hujjatlar: Tarmoq tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadi.

- Tarmoq standarti – TSt
- Tarmoq klassifikatori – TT
- Norma va qoidalar –*)
- Rahbariy hujjat – RH
- Tavsiyanomalar – T

Ma’muriy-hududiy me’yoriy hujjatlar: Viloyat hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

- Ma’muriy-hududiy standart – MHSt

Korxona bo‘yicha me’yoriy hujjatlar: Korxona rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

- Texnik shartlar – TSh
- Korxona standarti – KSt

Standartlashtirish tub mohiyati bilan ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarador formalari haqidagi fandir.

Standartlashtirish iqtisod, texnologiya va fundamental fanlar singari asosiy yo‘nalishlarni bir-biriga bog‘lovchi vosita hamdir.

Ko‘pgina texnika jihatidan ilg‘or mamlakatlarda standartlashtirish masalalariga o‘suvchi qiziqish qayd qilinmoqda, uning asosi bo‘lgan standartlashtirishning nazariyasiga ham katta e’tibor berilmogda.

Standartlashtirishni texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarishda eng ratsional joriy qilish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat harajatlarini va moddiy resurslarni

ta'sirchan vositalaridan biri sifatida ko'rilmoqda. 1993 yilning 28 dekabrida metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar bilan bir qatorda "Standartlashtirish to'g'risida" qonun ham qabul qilindi. Bu qonun respublikamizda standartlashtirish sohasi va standartlashtirish tizimi uchun asosiy hujjat hisoblanadi.

Standartlashtirish bo'yicha asosiy atamalar va tushunchalar.

Standartlashtirish deganda mavjud yoki bo'lajak aniq masalalarga nisbatan umumiy va ko'p marta tatbiq etiladigan talablarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat standartlarni va texnikaviy talablarni ishlab chiqishda, nashr etishda va tatbiq qilishda namoyon bo'ladi. Standartlashtirishning muhim natijalari odatda mahsulot, jarayon va xizmatlarning belgilangan vazifaga mos kelishi, savdodagi g'ovlarni bartaraf qilish hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlikka ko'maklashishda namoyon bo'ladi.

Sifatni o'rganish uchun o'rtacha namuna olinadi - turli xil qadoqlash joylaridan mahsulot partiyasining namunasi. Namuna ba'zan maxsus prob bilan olinadi. O'rtacha namunani olish tartibi standartlarda ko'rsatilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar bilan to'yingan bozorda, ularni turli korxona va firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotganda, tovarlarning standartda ko'rsatilgan sifatning ma'lum darajasiga muvofiqligini kafolatlangan tasdiqlash zarur. oziq-ovqat sifatini baholash

Sifat - bu mahsulotning maqsadiga muvofiq belgilangan va nazarda tutilgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar to'plami.

Bir yoki bir nechta mahsulot xususiyatlarining uning sifatiga kiritilgan miqdoriy xarakteristikasi mahsulot sifati ko'rsatkichi deb ataladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari sifati ko'rsatkichlarining bir necha guruhlari mavjud.

Maqsad ko'rsatkichlari mahsulotning asosiy funktsiyalari va ko'laminis tavsiflovchi xususiyatlarini birlashtiradi.

Bular organoleptik ko'rsatkichlar (tashqi ko'rinishi, tuzilishi, rangi, ta'mi, hidi va boshqalar), fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar (natriy xloridning massa ulushi, namlik, yog', qattiq moddalar va boshqalar), shuningdek, qadoqlash, qadoqlash va markalashni tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Tashish qobiliyati ko'rsatkichlari mahsulotni tashish paytida iste'molchi xususiyatlarini qanchalik yaxshi saqlab qolishini ko'rsatadi.

Saqlanish ko'rsatkichlari (iste'mol qilishda ishonchlilik) mahsulotning saqlash vaqtida sifatini saqlab qolish qobiliyatini tavsiflaydi (optimal saqlash shartlariga riosa qilgan holda).

Xavfsizlik ko'rsatkichlari oziq-ovqat mahsulotlarining inson iste'moli uchun xavfsizligini ta'minlaydi.

Masalan, mahsulotlarda zaharli metallar (simob, qo'rg'oshin, kadmiy), radioaktiv izotoplari, sog'liq uchun xavfli mikroorganizmlar va boshqalarni cheklash.

Estetik ko'rsatkichlar mahsulot dizaynining jozibadorligini, informativligini, foydalaniш qulayligini tavsiflaydi.

Ekologik ko'rsatkichlar tovarlarni ishlab chiqarish, tashish, saqlash yoki sotish natijasida yuzaga keladigan zararli moddalarning atrof-muhitga ta'siri darajasini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi (xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va materiallarning turi va sifati, shuningdek, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlarning sifati, ishlab chiqarish xodimlarining malakasi, tajribasi va mahorati, saqlash sharoitlari, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati). tashish va sotish).

Mahsulot sifatini shakllantirish jarayoni me'yoriy hujjatlarni (GOCT, TU, STB va boshqalar) ishlab chiqishdan boshlanadi. Mahsulot sifati ko'rsatkichlariga talablar qanchalik qattiq bo'lsa, uning sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

Mahsulot sifatiga xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va materiallarning turi va sifati, shuningdek, texnologik asbob-uskunalar va texnologik jarayonlarning sifati katta ta'sir ko'rsatadi. Tayyor mahsulot sifati ko'p jihatdan mehnat sifatiga, ya'nii ishlab chiqarish xodimlarining malakasi, tajribasi va mahoratiga ham bog'liq. Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini shakllantirish ularni saqlash, tashish va sotish bosqichlarida davom etadi. Ushbu bosqichlardagi aksariyat tovarlar uchun saqlash, tashish va sotishning maqbul usullarini ta'minlagan holda ularning miqdori va sifatini saqlab qolish vazifasi hisoblanadi. Ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarining sifati saqlash vaqtida sezilarli darajada yaxshilanadi.

Xususiyatlari - mahsulotning uni yaratish, saqlash, sotish, iste'mol qilish jarayonida namoyon bo'ladigan ob'ektiv xususiyati. Mahsulot xususiyatlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- oddiy - bir xususiyat bilan tavsiflanadi, masalan: yog 'miqdori (kefirda), sutning zichligi;
- kompleks - yig'indisida namoyon bo'ladigan xususiyatlar majmuasi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardir: ozuqaviy qiymati, fizik va ta'm xususiyatlari, saqlash muddati.

Iste'mol xususiyatlari va ko'rsatkichlari nomenklatura - bu real yoki sezilgan ehtiyojlarni qondirishni belgilovchi xususiyatlar va ko'rsatkichlar yig'indisi, aslida bu nomenklatura iste'mol tovarlarining sifat xususiyatlarini belgilaydi. Nomenklatura doirasida iste'molchi xossalari va ko'rsatkichlari o'ziga xos xususiyatlariga va qondirilgan ehtiyojlariga qarab guruhlarga va kichik guruhlarga bo'linadi. Keling, fiziologik va organoleptik xususiyatlarni batafsil ko'rib chiqaylik.

Fiziologik xususiyatlari - tovarlardan foydalanilganda alohida a'zolar yoki inson tanasining qismlari faoliyatining qulayligini ta'minlash qobiliyati.

Tovarlarni iste'mol qilish (ekspluatatsiya qilish) jarayonida inson energiya sarflagan holda ma'lum kuch sarflaydi. Mahsulotni iste'mol qilishda qanchalik kam harakat talab qilinsa, uning funktional xususiyatlari shunchalik yaxshi bo'ladi. Tovarlarning fiziologik xususiyatlari turli sabablarga ko'ra iste'molchilarning ayrim segmentlarining individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak, masalan, yoshi (bolalar,

qariyalar, yoshlar uchun tovarlar va boshqalar), sog'liqni saqlash holati (masalan, tibbiy yoki tibbiy mahsulotlar uchun tovarlar). profilaktika maqsadida). Oziq-ovqat mahsulotlarining fiziologik xususiyatlarining ko'rsatkichiga misol sifatida turli yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining mustahkamligi yoki tarqalish darajasi hisoblanadi. 6 ms gacha bo'lgan bolalar uchun. bolalar ovqatlari suyuq mustahkamlikka ega bo'lishi kerak, 1 yilgacha - bir hil va qo'pol.

Organoleptik (psixologik va fiziologik) xususiyatlar - tovarlarning iste'molchining psixologik va fiziologik imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash qobiliyati. Bu xususiyatlar insonning psixologik va fiziologik ehtiyojlarini har tomonlama qondiradi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Standart nima?
2. Respublikamizda standartlashtirish bo'yicha milliy idora qaysi?
3. Standartlashning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Me'yoriy hujjat deganda nimani tushunasiz?
5. Standartlashtirish bo'yicha asosiy atamalarni keltiring.

2-Mavzu; Standartlashtirish tizimi. Oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jaligida standartlashtirish.

Reja;

1. Standartlashtirish tizimi.
2. Oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish
3. Standartlashtirish ob'ektlari
4. Standartlar tasnifi va tuzilishi.

Respublikamizda standartlashtirish jarayoni 3 bosqichdan iborat:

- atamalarni standartlashtirish;

- o'lchovlarni, o'lhash va sinov uskunalarini va ularni konstruksiyaga va mahsulot texnologiyasiga bog'lab standartlashtirish;

- mahsulotning o'zini standartlashtirish.

ISO/MEK tomonidan yaratilgan konsultativ kengash texnika rivojining yo'nalishini quyidagicha tavsiya qiladi:

- standartlarni yaratishda va ularni kelishishda yangi mexanizmlarni yaratish;

- harajatlarni ilk tadqiqotlarga va real istiqbolga ega bo'lgan texnikaviy yutuqlarga to'plamoq;

- bor texnikaviy qo'mitalarning ilmiy tadqiqot, tajribaviy konstruktorlik ishlarni shu jumladan ekologiya sohasidagi ishlarni, e'tiborga olgan holda yangi rejali ishlarni yaratish;

- etakchi mutaxassislar boshchiligidagi o'tkaziladigan seminarlar, ilmiy ma'ruzalar shaklidagi ikkilamchi mexanizmlardan foydalanish;

- sanoatning yuqori rahbarlari orasida yangi g'oyalarni targ'ibot qilishga e'tiborni qaratmoq.

Mana shuning uchun standartlashtirishda atamalarni bir erga to'plamoq, ular asosida ta'riflar yaratmoq va nihoyat bu sohada standartlar yaratmoq hozirgi kunning talabi, iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb masalalari hisoblanadi.

Shu maqsadda standartlashtirish sohasidagi atamalarni to'plashda xalqaro standartlashtirish tashkilotining hujjatlariiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ilk yaratilgan hujjatlarga murojaat etildi.

Mazkur standart standartlashtirishning asosiy vazifa va maqsadini, standartlashtirish ishlarining tashkil etilishi va asosiy qonun-qoidalalarini, me'yoriy hujjatarning toifasini, standartlar turlarini, xalqaro hamkorlik bo'yicha asosiy qoidalarni, standartlar va texnikaviy shartlarning qo'llanishini, standartlarga va o'lchash vositalariga nisbatan davlat nazoratini belgilaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish

Oziq-ovqat havfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT mutahasislari ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqtি kelganini ta'kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Boz ustiga, bunday holatda inson manfaatlari yo'lida ham qishloq xo'jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanadi. Nega bashariyat farovonligi va kelajagiga xizmat qiluvchi mana shunday nufuzli tashkilot bu boradagi nuqtayi nazarlarni yangilash g'oyasini ilgari surmoqda, Sababi, bugungi kunda tabiatga befarq munosabat, unga antropogen ta'sirning kuchayib borishi, isrofgarchilik, ilg'or va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi oziq-ovqat balansi bo'yicha farqning o'sayotgani, iqlim o'zgarishlari qator salbiy omillarni keltirib chiqaryapti. Nozine'matlarimiz, chuchuk suv, o'rmonlar, biologik xilma-xillik keskin sur'atlarda kamayib bormoqda, yer unumдорлиги pasayib, tuproq degradatsiyaga uchrayotir. Oqibatda, BMT ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzi aholisi soni geometrik progressiya bo'yicha ortib bormoqda afsuski ularni ehtiyoji arifmetik progressiya bo'yicha qondirilmoqda, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga yetadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda

yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat yemaslik natijasida kelib chiqayotir. Hozirgi kunda har yili 3,1 nafar bola aynan shu sabab hayotdan ko'z yummoqda.

Oziq-ovqat havfsizligi mamlakat aholisining sog'ligini saqlashga imkon beradigan demografik holatning ijobiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Havfsiz oziqlanish hayot davomiyligini uzaytiradi, bolalarning barkamol o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi, ko'pgina kasalliklarning oldini oladi, shu orqali millat salomatligini ta'minlaydi.

Butun dunyoda sun'iy mahsulotlarni ishlab chiqarish kundan-kunga ko'payib borayotgan, bugungi kunda oziq-ovqat havfsizligi ustidan nazoratni susaytirishga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Mamlakatning oziq-ovqat havfsizligi-jismoniy talablar darajasida aholi salomatligi holatiga havf solmasdan aholini muhim iste'mol mahsulotlari bilan uzlusiz ta'minlash imkoniyati kafolatlangan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy holatdir. Boshqacha qilib aytganda, hozirgi yashayotgan va kelajakda tug'iladigan avlod uchun havf tug'dirmaydigan oziq-ovqat havfsiz hisoblanadi, Shu bois, bugungi kunda mahsulot sifatini nazorat qilishning obyektivligi o'z navbatida butun insoniyat salomatligi uchun havfsizligini kafolatlagani bois, mazkur soha bilan bog'liq muammolarga yuzaki qarab bo'lmaydi. Bizning tadqiqot mavzuimizni chuqr ohib berish, sohadagi muammolarni ohib berish, zarur takliflar bildirish, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarini tahlil qilishni taqozo etadi.

"Aholining Sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuning 17-moddasida fuqarolar davlat boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyyati organlaridan, shuningdek davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi organlardan sanitariya-epidemiologik vaziyat va insonning yashash muhiti holati, yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan mahsulotning, shuningdek bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning xavfsizligi hamda sifati to'g'risida axborot olish huquqida ega ekanligi belgilangan.

Bundan kelib chiqadiki, har bir fuqaro o'zi iste'mol qiladigan mahsulotning havfsizlik talablariga qanchalik javob berishi haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishga huquqlidir. Shuningdek qonunchiligidan, "Oziq-ovqat mahsulotining havfsizligi" tushunchasiga ta'rif berilgan: "Oziq-ovqat mahsulotining havfsizligi — Oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga mosligi", ko'rinish turganidek, ta'rifda havfsizlik uchun talab aynan ko'rsatilmasdan boshqa normativ-hujjatlarga havola qilingan. Mahsulotning sifati va xavfsizligini ta'minlaydigan talablar majburiy bo'lib, u qonun yoki boshqa normativ hujjat belgilangan tartibda o'rnatiladi. Iste'molchilarining havfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiy talablar O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlangan va nazorat qilinadigan standartlar, sanitariya me'yorlari va qoidalarda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan standartlashtirish sohasidagi hujjatlarni quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

- Milliy standartlar
 - Standartlashtirish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining milliy organi tomonidan qabul qilingan hujjatlar;
 - Standartlashtirish qoidalari, standartlashtirish sohasidagi normalar va tavsiyalar;
 - Texnik, iqtisodiy va ijtimoiy soha axborotlarining barcha rus umumrespublika tasniflagichlari;
 - Korxona, tashkilot va muassasalarning standartlari.
- Standartlashtirish ob'ektlari
- Standartlashtirish ob'ektlariga o'z navbatida quyidagilar kiradi:

- yagona texnikaviy tilni qo'shib hisoblaganda umumtexnikaviy ob'ektlar, umumiyl mashinasozlikda qo'llaniladigan buyumlarning namunaviy konstruksiyalari (mahkamlash vositalari, asboblar va boshqalar), materiallar va moddalarning xususiyati haqidagi ishonchli ma'lumotlar, texnikaviy-iqtisodiy axborotning tavsiflash va kodlash;
- aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va loyiha ob'ektlari;
- Respublikaga (yoki muayyan korxonalarga) mahsulot yoki texnologiyasining raqobat qilish qobiliyatini oshirishini ta'minlash imkoniyatini beradigan fan va texnika yutuqlari;
- Respublikada ichki ehtiyojini qondirish uchun, shuningdek, boshqa davlatlarga eksport sifatida etkazib berish uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlari;
- standartlarning talablari va texnikaviy shartlari xalqaro, mintaqaviy va sanoati rivojlangan xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari talablari bilan uyg'unlashtirilishi.

"O'zstandart" agentligi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va Sog'liqni saqlash vazirligi standartlashtirish bo'yicha tarmoqlararo ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish uchun o'z huquqlari doirasida yo'riqnomalar, qoidalar, nizomlar, uslubiy ko'rsatmalar, rahbariy hujjatlarni (RH) va tavsiyalarni (T) ishlab chiqadilar va manfaatdor tomonlar bilan kelishilgan holda tasdiqlaydilar.

O'zbekiston Respublikasining standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro'yxatga olish tartibi O'z RST 1.1-92 standarti bilan belgilanadi.

Standartlashtirish ob'ektining o'ziga xos xususiyatlariga va unga belgilanadigan talablar mazmuniga bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish tizimi asosiy turdag'i standartlarni nazarda tutadi:

- asos bo'luvchi standartlar;
- umumtexnikaviy standartlar;
- texnikaviy shartlar (mahsulot, jarayon, xizmatlar uchun) standartlari;
- texnikaviy talablar standartlari;
- nazorat usullari (sinovlar, tahlillar, o'lchashlar, ta'riflar) standartlari.

Lozim bo'lgan taqdirda mahsulotning asosiy texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini, uning nomlarini (turlarini) oqilona tarkibi va boshqa talablarni aniq belgilaydigan bir turdag'i mahsulot guruhiga standart ishlab chiqilishi mumkin.

Asos bo'luvchi standartlar tashkiliy-texnikaviy jarayonlarning bajarilishi, ishlab chiqish, ishlab chiqarish va mahsulotni qo'llash jarayonlari tartibini (qoidalarini), shuningdek faoliyatning muayyan sohasida ishlarni tashkil etishning asosiy (umumiyl) qoidalarini belgilaydi.

Umumtexnikaviy standartlar mahsulotning texnikaviy jihatdan bir-biriga mos bo'lishini va o'zaro almashuvini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqish, ishlab chiqarish va mahsulotni qo'llashning umumtexnikaviy talablarini, shuningdek mehnat havfsizligi, atrof-muhitni (ekologiya) zararli ta'sirlardan (shovqin, tebranish va

boshqalardan) himoya qilish, namunaviy texnologik jarayonlar, mahsulot sifatini nazorat qilish (sinash) usullari, hujjatlarni birxillashtirish talablarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi standartlari va texnikaviy shartlarini ishlab chiqish, odatda har bir manfaatdor korxona va tashkilotning muxtor vakili bo'lgan mutaxassislardan tashkil topgan texnikaviy qo'mitalar (TQ) kuchi bilan yoki standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Standartlar tasnifi va tuzilishi. Amal qilish sohasi, mazmuni va tasdiqlanadigan darajasiga qarab standartlarni xalqaro, mintaqaviy va milliy turlarga bo'lish mumkin. Xalqaro standartlar Standartlash bo'yicha Xalqaro tashkilot (ISO), mintaqaviyllari - iqtisodiy va siyosiy manfaatlar asosida o'z faoliyatini birlashtirgan ayrim mamlakatlarni o'z tarkibiga oladigan tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Milliy standartlar u yoki boshqa mamlakat doirasida ishlab chiqiladi va amal qiladi hamda tegishli darajada tasdiqlanadi.

Mamlakatimizda milliy standartlarning oliy toifasi davlat standartlari (GOST) dir. Davlat standartlari xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida, barcha tashkilot va korxonalar tomonidan qo'llanilishi majburiydir. Standartlarni eng yaxshi va bir xil qilib ishlab chiqish, joriy etish va ularga rioya etilishi ustidan nazorat yuritish maqsadida barcha asosiy qoidalarni, shu jumladan, standartlashtirish xizmatlari tizimini kamrab oladigan maxsus standartlar kompleksi amal qiladi.

Tarmoq standartlari eng cheklangan doirada amal qiladigan standartlarga kiradi. Ular ana shu tarmoqdagi barcha korxona va tashkilotlar, shuningdek, uning mahsulotini ishlatadigan (iste'mol qiladigan) boshqa tarmoqlar korxona va tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. Bunday standartlarni ana shu mahsulot turini ishlab chikarishda etakchi bo'lgan vazirlik (idora) tasdiqlaydi. Tarmoq standartlari davlat standartlari ob'ekti bo'limgan mahsulotlarga belgilanadi.

Respublika standartlari (RST) Respublika va maxalliy qaramoqdagi barcha tashkilot va korxonalar uchun majburiydir. RST Respublika va maxalliy bo'ysunihdag'i korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotlarga belgilanadi, davlat va tarmoq standartlariga kiramagan mahsulotlar bundan mustasnodir. Milliy madaniyat standartlari va atributlari Respublika standartlariga misol bo'lishi mumkin.

Korxonalar yoki birlashmalar texnologiya va ishlab chiqarishning tashkil etilishini takomillashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash maqsadida korxonalar standartlarini (KST) ishlab chiqish va tasdiqlash huquqiga ega. Birok bu korxonalar etkazib beradigan mahsulotlarga korxonalar standartlari belgilanmaydi.

Texnik talablarda mahsulotni qat'iy belgilangan maqsadda qo'llanishdag'i sifat me'yorlari va talablar keltiriladi.

Masalan, arpa doni sanoatning ko'p tarmoqlarida xom ashyo sifatida ishlatiladi va ularning har biri unga o'ziga xos talablarini qo'yadi. Shuning uchun oziq-ovqat va em uchun arpaga, yorma arpasiga, pivo pishirishdagi arpaga, spirt ishlab chiqarishda solod uchun qayyta ishlanadigan arpaga alohida standartlar mavjud. Agar un yoki yorma ishlab chiqarish uchun arpaning o'sganligi ahamiyatga ega bo'lmasa, pivo va solod

ishlab chiqarish uchun bunday ko'rsatkichning me'yorlashtirilishi ushbu xomashyo turiga qo'yiladigan eng muxim talablardan biri hisoblanadi, o'sish qobiliyati kamida 90-95% bo'lishi kerak.

Standartlardan foydalanishning qulayligi uchun ular tuzilishi bir xillashtirilgan. Har bir standart uning nimaga tegishli ekanligi ko'rsatiladigan ta'rifdan boshlanadi. So'ngra tovar odatda tiplar deb ataladigan alohida guruhlarga bo'linadi, ya'ni tovar tasnifi keltiriladi.

O'simlik xomashyosining ancha qismini tiplarga bo'lish uchun mahsulotning texnologik va oziq-ovqat xususiyatlarini tavsiflaydigan barqaror belgilari asos qilib olingan. Odatda bunday belgilar botanik belgilardir. Masalan, oziq-ovqat bug'doyi don turi (qattiq yoki yumshoq), rangi (qizil donli yoki oq; donli) va biologik xususiyatlariga (bahorgi va qishki) qarab tiplarga bo'linadi. Pichan uchun standartda o'tlarning botanik tarkibi va uning oqibati sifatida pichanning oziqlik qimmati tip belgisi bo'lib xizmat qiladi.

Sifatning tipga bo'ysunadigan barqaror belgilar bo'lganida ular kichik tiplarga bo'linadi. Masalan, yumshoq bug'doyning qizil donli shakllari to'qqizildan sariq ranggacha bo'lishi mumkin, bunda rang ko'pincha endospermning tuzilishi bilan (shishasimon yoki unsimon) mutanosib bo'ladi.

Ba'zan kichik tiplarga bo'lish uchun jug'rofiy belgi - mahsulot ishlab chikarilgan joy asos bo'ladi. Agar u mahsulotning texnologik sifatlariga qonuniy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, bu omil hisobga olinadi.

Ko'pgina standartlarda yaxshiroq bilib olish uchun har bir tipga yoki kichik tipga kiradigan nav nomi ko'rsatiladi. Shunday qilib, mahsulotni tabiiy belgilariga qarab guruhashga qaratilgan tiplar va kichik tiplarga tasniflash uning botanik va biologik belgilari bilan texnologik sifatlari hamda iste'molga doir qimmati o'rtasidagi aloqani yaqqol ko'rsatadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish shart-sharoitlari turlicha va ularning sifatiga bir xilda ta'sir qilmasligi ham mumkin. Shuning uchun tiplar va kichik tiplarga tasniflash mahsulotning barcha xususiyatlarini xam ochib bermasligi mumkin. Mahsulotlar sifatini birmuncha ko'proq o'zgarib turadigan belgilar soniga qarab me'yorlash zarurati paydo bo'lmokda.

Masalan, donning bir tipi va kichik tipi doirasida uni etishtirish, hosilni yig'ib olish va tashish shart-sharoitlariga qarab xar xil miqdordagi suv va turli aralashmalar bo'lishi, turli darajada bajarilgan, zararkunandalar va kasalliklar bilan zararlangan yoki zararlanmagan bo'lishi mumkin va hokazo.

Shu sababli standartlarda mahsulotning iste'mol qiymatiga ta'sir qiladigan turli belgilar bo'yicha sifatning xar xil normalari keltiriladi. Bu ko'rsatkichlarning hammasi «Texnik talablar» bo'limida shakllantiriladi va maxsus atamalar -holatlar (masalan, namligi va dondag'i aralashmalar tarkibi bo'yicha), darajalar (masalan, don zaxiralaring zararkunandalar tomonidan zararlangani), toifalar (don naturasiga qarab), guruhlar (kleykovina bo'yicha) va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Ayrim standartlarda sifatning turli ko‘rsatkichlari klasslarga birlashtirilgan.

Birinchi klassga sifatning klassga kiradigan barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng yaxshi me’yorlariga ega maxsulotlar kiradi. Shuningdek, hatto past klass talablariga ham javob bermaydigan mahsulotlar ham nazarda tutiladi.

Standartning maqsadiga qarab unda sifatning asosiy (bazisli) va yo‘l qo‘yiladigan past (cheklovchi) me’yorlari berilishi mumkin.

Standartlar ushbu mahsulotni baholashda qo‘llaniladigan sifat sinovlari uslublari, shuningdek, uni saqlash va tashish shartlari xaqidagi kichik bo‘limlar (havola tarzida) bilan yakunlanadi.

Standartlashda sifatni baholash uslublari alohida o‘rin tutadi. Tovarlar sifatini me’yorashtirish ular sifatini belgilashning ham standart uslublarini talab qiladi.

Xom ashyo va tayyor mahsulotlarni baholash ularning iste’molchiga etkaziladigan turli bosqichlarida amalga oshiriladi. Binobarin, faqat bir xildagi standartlarni qo‘llash bilan tovari u yoki boshqa sifat guruhiга kiritishda xatoning oldini olish va uning uchun hisob-kitob qilishda to‘g‘ri yondashuvga ega bo‘lishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar:


1. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida qanday standartlar qo‘llaniladi?
2. Standartlar va texnik sharoitlar orasida kanday farq bor?
3. Ta’rif va terminlarga hamstandartlar bo‘lishi kerakmi?
4. Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi standartlari qaysi turdagি standartlarga mos keladi?
5. Standartlashtirish davlat tizimi nima?
6. Standartlashtirish jarayonining bosqichlari.
7. Standartlashtirish davlat tizimidagi asos bo‘luvchi standartlarga misollar keltiring.

3-Mavzu; Oziq-ovqat mahsulotlari standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va tatqiq etish.

Reja;

1. O‘zbekistonda GLOBAL G.A.P. standartlarini joriy etishning istiqbollari
2. Ishlab chiqarish xududiga qo‘yiladigan talablar.
3. O‘zbekiston Respublikasida halol standartlarni joriy etish sohasida amalga oshirilgan ishlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2017 yil 7-fevraldagи PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” ning 3.3. Qishloq xo‘jaligini modernizastiya qilish va jadal rivojlantirish bo‘limida aniq vazifalar belgilandi. Xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lish mahsulot eksporti uchun “viza” vazifasini o’tab beradi. GLOBAL G.A.P. – standartlari dunyo bo‘yicha tan olingan va xalqaro savdoda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun eng ko‘p qo‘llanilayotgan standartlardan hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoning 124 ta mamlakatidagi 170000 dan ortiq ishlab chiqaruvchilar mazkur sertifikat bo‘yicha sertifikatlangan.



GLOBAL G.A.P. sertifikatiga ega bo'lgan korxonalarining dunyo bo'yicha o'sib borish dinamikasi

Biz mazkur risolada GLOBAL G.A.P. standartlarining mohiyati, ahamiyati va joriy etish tartibi haqida qisqacha so'z yuritamiz.



Qishloq xo'jaligidakengxo'llaniladigan "Standart" G.A.P. - Good Agricultural Practices (maqbulqishloqxo'jalikamaliyoti) hamfoydalaniladi.

GLOBAL G.A.P. – bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun

birinchi darajali standart bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarini ekish vaqtidan to mahsulotlarni yig'ib olishgacha bo'lgan, agar chorvachilikda bo'lsa ishlab chiqarishga kirishish vaqtidan oraliq mahsulot holatiga kelguncha (boqish va so'yish) bo'lган davrda barcha ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab olgan me'yoriy hujjatdir.

Ushbu hujjatda qishloq xo'jalik maxsulotlari etishtiruvchi korxonalarining amaliyotiga tegishli umumiy tamoyillar bayon qilingan bo'lib, butun jahonda etakchi savdo kompaniyalari uchun muvofiq bo'lgan, global miqyosdagi o'simlikshunoslik, chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning optimal usullarini joriy etishning asosiy elementlari belgilangan.

G.A.P. bu etishtirilayotgan mahsulot xavfsizligini oshirish va sifatini yaxshilashga yordam beruvchi tavsiyalar jamlamasidan iboratdir. Bu standartda ixtiyoriy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimlariga ko'llash va moslashtirish mumkin bo'lgan rahbariy ko'rsatmalar berilgan.

G.A.P. qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonining dastlabki to'rtta komponenti ya'ni, tuproq, suv, xodim, ishlab chiqarish va qayta ishlash muhitiga e'tibor qaratadi. Bu standart ISO 9001 standarti bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada emas, ammo, muqobil tamoyillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari

xavfsizligi va sifat tizimini yaratishga yordam beradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarda o'z biznesida oziq-ovqat xavfsizligiga bilan bog'liq tahdidlarni minimum darajaga tushirish uchun, savdo tarmoqlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha yangi standart ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Shu tariqa yuzaga kelgan standart EurepGAP: (Euro-RetailerProduceWorkingGroup) – oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi masalalari bo'yicha evropa ishchi guruhi va GAP (Good Agricultural Practice) -Qishloq xo'jaligini yaxshilash amaliyoti nomini oldi.

GLOBAL G.A.P. standarti EUREPGAP (butun jaxon bo'yicha qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlariga standartlar, sertifikatlashtirishga talablarni o'rnatuvchi xususiy idora) tomonidan chop etiladi. Ushbu standartning asosiy maqsadi qishloq xo'jalik maxsulotlarini etishtirish jarayonining barcha jabhalarini kuzatish orqali ularni etishtirish davrida sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va xavf-xatarlar darajasini minimallashtirishdan iboratdir.

GLOBALG.A.P. sertifikati qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni integrastiyalangan boshqaruv tizimi (IFA) GLOBAL G.A.P.ni, Oziq-ovqat xavfsizligi (masalan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari xavfsizligi") ni joriy qilishga talabgor va/yoki omixta em ishlab chiqaruvchi sub'ektlarga beriladi.

GLOBALG.A.P. sertifikatini tasdiqlash olish va tasdiqlash uchun birqancha talablar bajarilishi shart. Mazkur jarayonda eng birinchi bosqich me'yoriy hujjatlarning ta'minlanganligidir. Mazkur standartlar bo'yicha sertifikatlashtirish jarayonida asosan quyidagi me'yoriy hujjatlar bo'lishi talab etiladi:

GLOBAL G.A.P. ning sertifikatlashtirish va sublistenziyalash bo'yicha roziligi (Sertifikatlashtirish organi – Ishlab chiqaruvchi o'rtasida);

GLOBAL G.A.P.ning sertifikatlashirish va lizenstiyalash bo'yicha roziligi (Sertifikatlashtirish organi va GLOBAL G.A.P./FoodPLUS GmbH o'rtasida);

Nazorat ro'yxatlari;

GLOBAL G.A.P. – Nazorat nuqtalari va muvofiqlik ko'rsatkichlari;

SMT (Sifat menejmenti tizimi)ga talablar (SMT guruhi, bir necha ishlab chiqaruvchi xududlarning SMT)

Agarda nazorat nuqtalari va muvofiqlik ko'rsatkichlarida ko'rsatilmagan, ammo unga ilova qilingan boshqaruv tamoyillarini o'zida mujassam etgan u yoki bu hujjatda ko'rsatilgan talablar to'liq yoki qisman bajarilishi shar hisoblanadi. Bu hujjatlarning nomlanishiga qarab ham ularning bajarilishi shart ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Nazorat nuqtalari va muvofiqlik ko'rsatkichlarida ilova qilinadigan boshqaruv tamoyillari me'yoriy hujjat hisoblanmaydi va ishlab chiqaruvchilarga qo'yiladigan talablarning bajarilishini kuzatish bo'yicha yo'riqnomalar vazifasini o'taydi.

Boshqaruv tamoyillarida tegishli mamlakatda mavjud bo'lgan ishlab chiqarishda nazorat nuqtalari va muvofiqlik ko'rsatkichlari talablariga rioya qilishga moslashish uchun tushuntirishlar beriladi. Bu tamoyillar tasdiqlanib, e'lon qilingandan keyingina bajarish uchun majburiy hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish organlari me'yoriy hujjatlardagi o'zgarishlar bilan doimiy ravishda xabardor bo'llib turishlari shart hisoblanadi.

GLOBAL G.A.P. standarti bo'yicha sertifikatlashtirilishi uchun istalgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi ishlabchiqaruvchilar ariza topshirishlari mumkin. Mazkur sertifikatlashtirish doirasida "ishlab chiqaruvchi(lar)" deganda ishlab chiqarilayotgan va realizastiya qilinayotgan mahsulotlarga va ishlab chiqarish jarayoniga huquqiy javobgar bo'lgan (xususiy) shaxs yoki korxona (kompaniyalar, alohida ishlab chiqaruvchilar yoki ularning guruhi) tushuniladi.

Ishlab chiqaruvchilar sertifikatlashtirishning 2 ta variantidan birini tanlash huquqiga ega. Bu variant ishlab chiqaruvchi tomonidan ariza to'ldirilgan blankada ko'rsatilgan bo'ladi.

1-variant. Individual sertifikatlashtirish. Mazkur sertifikatlashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Yakka ishlab chiqaruvchi (GLOBAL G.A.P. yoki ekvivalent sxema bo'yicha) sertifikatlashtirish bo'yicha ariza topshiradi. Sertifikatlashtirish yakunida yakka ishlab chiqaruvchi sertifikat egasiga aylanadi.

1-variant. SMT joriy etilmagan bir necha ob'ektlarni sertifikatlashtirish. Bunda alohida ishlab chiqaruvchi yoki bitta tashkilot mustaqil yuridik shaxs bo'limgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar ob'ektlariga egalik qiladi.

1-variant. SMT ni joriy etilgan bir necha ob'ektlarni sertifikatlashtirish.

Bunda alohida ishlab chiqaruvchi yoki bitta tashkilot mustaqil yuridik shaxs bo'limgan, ammo SMT (Sifat menejmenti tizimi) joriy etilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar ob'ektlariga egalik qiladi.

2-variant. Bunda ishlab chiqaruvchilar guruhi (GLOBAL G.A.P. yoki ekvivalent sxema bo'yicha) sertifikatlashtirish bo'yicha guruh nomidan ariza topshiradi.

Sertifikatlashtirish yakunida ishlab chiqaruvchilar guruhi birlashgan yuridik shaxs sifatida sertifikat egasiga aylanishadi.

Sertifikatlashtirishni amalga oshirishda ishlab chiqarish xududini aniqlashtirib olish muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish xududi ko'pincha yaxlit maydonda joylashgan bo'ladi, ayrim hollarda esa bir-biridan har xil masofalarda bo'lган turli xududlarda ham joylashgan bo'ladi. Bunday holatlarda harbir xudud xaritada o'lchami bo'yicha aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish xududiga qo'yiladigan talablar.

Ishlab chiqarish xududi yuridik shaxs tomonida shaxsiy, xususiy yoki ijaraga olingan bo'lib, bevosita uning nazoratida bo'lishi kerak. Agar yuridik shaxs er egasi bo'lmasa, ishlab chiqarish davomida er egasi tomonidan ijaraga olingan er bo'yicha hech qanday qaror qabul qilmaslik, jarayonga har qanday yo'l bilan aralashmaslik haqida imzo chekilgan hujjat bo'lishi shart. Sertifikat egasi barcha ro'yxatga olingan mahsulot bo'yicha, shu jumladan, bozorga chiqqan mahsulot bo'yicha ham huquqiy javobgar hisoblanadi.

Nazorat nuqtalari va muvofiqlik ko'rsatkichlari bir necha modullarga bo'linadi. Qamrab olish sohalari bo'yicha: Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bazasi; qishloq xo'jaligi mahsulotlari bazasi; chorvachilik bazasi; suv va dengiz mahsulotlari bazasi.

Bundan tashqari aniq ishlab chiqarish sohasi bo'yicha, mahsulot turlarining tasnifi bo'yicha podmodullarga bo'linadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha standartlar (FSS) faqagina IFA seriyasidagi standartlarining iste'mol mahsulotlari xavfsizligi qismidagi elementlarni o'z ichiga oladi (masalan, Xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish standarti(PSS) iste'mol mahsulotlari xavfsizligining meva va sabzavotlar kabi qismini o'z ichiga oladi).

GLOBALG.A.P. bo'yicha sertifikatlashtirishda ishlab chiqaruvchilar bilan barcha jihatlarni hisobga olish zarur bo'ladi. Mazkur sertifikatlashtirishda parallel ishlab chiqarish va turdosh mahsulotga egalik qilish kabi holatlar tez-tez uchrab turadi.

Parallel ishlab chiqarish – bu alohida ishlab chiqaruvchilar, ishlab chiqaruvchilar guruhi a'zolari yoki ishlab chiqarish guruhi bitta turdag'i mahsulotning bir qismi sertifikatlangan, qolgan qismi esa sertifikatlanmagan bo'lishi holatidir. Shuningdek, parallel ishlab chiqarish sertifikat amal qilish doirasi sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqaruvchilarning barcha a'zolarini qamrab olmagan holatda qayd etiladi.

GLOBAL G.A.P. standartlari bo'yicha sertifikatlashtirish uchun birinchi navbatda sertifikatlashtirish idorasini tanlab olish kerak bo'ladi. Buning uchun GLOBAL G.A.P. ning rasmiy saytidan akkreditlangan sertifikatlangan idorasi tanlanadi. Mazkur saytda barcha idoralar haqida ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lib, ishlab chiqaruvchi o'zining xududiga yaqin yoki qulay bo'lган idorani mustaqil tanlashi mumkin. Agar GLOBAL G.A.P. tomonidan akkreditlangan idora mamlakat xududida mavjud bo'lmasa, boshqa mamlakat xududida joylashgan idoralarga murojaat etish mumkin, chunki bu idoralar xalqaro hisoblanadi va GLOBAL G.A.P. nomidan faoliyat yuritadi.

Ro'yxatga olish jarayonida quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi surur:
Korxona nomi va manzili;

Ishlab chiqarish maydoni va qayta ishlash stexi, mahsulotlarni tashish, yuklash-tushirish, saqlash haqidagi ma'lumotlar;

Mahsulot (Ro'yxatdan o'kazish jarayonida ishlab chiqaruvchi o'zining sertifikatlash idorasini parallel ishlab chiqarish/turdosh mahsulotga egalik qilishga ariza berish haqida xabardor qilish) Ro'yxatdan o'tish jarayonida ariza beruvchi quyidagi majburiyatni o'z zimmasiga oladi:

Har doim sertifikatlashtirish talablariga rioya etilishini ta'minlash;

O'rnatilgan tarif bo'yicha to'lovni amalga oshirish;

Sertifikatlashtirish idorasiga yangi ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish;

Sertifikatlashtirish va sublistenziyalash haqida kelishish.

Sertifikatlashtirish jarayonida zaruriy ma'lumotlar to'liq taqdim etilishi shart. Quyida barcha modul/submodullar bo'yicha minimal va taqdim etilishi shart bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati keltirilgan:

Kompaniya

Kompaniya nomi

Manzili: ko'cha, uy raqami yoki ishlab chiqaruvchining manzilini bildiruvchi boshqa ma'lumot;

Murojaat manzili: pochta indeksi;

Pochta indeksi – shahar, graflik (tuman), shtat/provinstiya (viloyat);

Telefon raqami (mavjud bo'lsa), faks raqami (mavjud bo'lsa), elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa);

Global identifikastion raqami (GLN) (mavjud bo'lsa);

Mamlakat xududida yoki xorijda yuridik shaxs sifatini tasdiqlovchi hujjat, bu hujjat (masalan, soliq to'lovchini hisob raqami, QQS raqami, ishlab chiqaruvchini idenifikastion raqami va h.k.) qayta ro'yxatdan o'tkazishni oldini olish maqsadida tekshiriladi.

Korxonaning geojoylashuvi

GLOBAL G.A.P. standartlari bo'yicha avvalgi qayd raqami (GGN).

Arizachi:

Bir mahsulotni turli sertifikatlashtirish organlari yokisertifikatlash tirishning har variantlari bo'yicha ro'yxatdan o'tkazishi mumkin emas.

Har xil mahsulotni turli sertifikatlashtirish organlari yoki sertifikatlashtirishning har variantlari bo'yicha ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. (masalan, olmani 1-variant bo'yicha, olchani 2-variant bo'yicha sertifikatlashtirish mumkin; olma bitta sertifikatlashtirish organi tomonidan, olcha esa boshqasida, yoki ikkalasi ham bitta organ tomonidan sertifikalanishi mumkin).

Bir vaqtini o'zida turli mamlakatlar xududida joylashgan ishlab chiqaruvchilar guruhi ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas (xalqaro 2-variant mavjud emas!).

Ro'yxatdan o'tkazishni yakunlashda arizachi:

Sertifikatlashtirish organiga belgilangan tartibda ariza topshiradi;

Sublistenziyalash va sertifikatlashtirish haqida Kelishuvga imzo qo'yadi;

GLOBALG.A.P. bo'yicha qayd raqamini oladi;

GLOBALG.A.P. bo'yicha ro'yxatga olish to'lovini amalga oshirish bo'yicha rozilik beradi.

Ro'yxatdan o'tkazish jarayoni (birinchi marta sertifikatlashtirish va sertifikat

berishda) audit boshlanguniga qadar tugatilishi kerak. Birinchi marta sertifikatlashirish va sertifikat berishda: sertifikatlashtirish organi to'ldirilgan ariza qabul qilib olgan paytdan boshlab 28 kalendar kuni davomida arizani tasdiqlashi va GLOBAL G.A.P. ro'yxatga olish raqami (GGN) ni taqdim etishi shart. Ishlab chiqaruvchilarni tekshirish va audit qilish grafik shakllantiriladi va belgilangan grafik asosida amalga oshiriladi. 2-variant bo'yicha sertifikatlashtirish jarayonida ham baholash yuqoridagi tartibda amalga oshiriladi. Ichki audit bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

Sertifikat muddatini uzaytirishni "inspekstion darcha" ning istalgan vaqtida amalga oshirish mumkin. Bu oraliq joriy sertifikatning amal qilish muddatining tugashidan 4 oy muddat oldin boshlanib, sertifikat muddatining tugashidan 4 oy muddat o'tgandan so'ng tugaydi, ya'ni 8 oydan iborat bo'ladi. Masalan, sertifikatlashning birinchi sanasi 2017 yilning 14 fevrali bo'lsa (amal qilish muddati 2018 yil 13 fevralgacha), sertifikatning amal qilish muddatini uzaytirish maqsadida 2-inspekstiya 2017 yil 14 oktyabrdan 2018 yil 13 iyungacha bo'lgan davrning istalgan vaqtida amalga oshirish mumkin.

Qayta sertifikatlashtirish maqsadida o'tkaziladigan inspekstiyalar oralig'i 6 oydan kam bo'lmasligi kerak. Inspekstiyalarni o'tkazish davomiyligi kamida 3 soatdan iborat bo'ladi.

GLOBAL G.A.P. sertifikatiga ega bo'lish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak bo'ladi:

Majburiy talablar: Sifat menejmenti tizimi (SMT) va bajarilishi majburiy bo'lgan talablar 100 % bajarilgan bo'lishi kerak;

Ikkinci darajali talablar: Qo'llaniladigan nazorat nuqtalari ko'rsatkichlari ikkinchi darajali talablarning 95 % i bajarilishi kerak. Tavsiyalar: muvofiqlikning minimal ko'rsatkichlarini namoyon etmaslik kerak.

Ishlab chiqaruvchi tuzilgan shartnoma va umumiy talablarni bajarishi shart. Sertifikatlashtirish organi aniqlangan qandaydir nomuvofiqlik bartaraf etilgandan ko'pi bilan 28 kalendar kuni davomida sertifikatlashtirish haqida qaror qabul qiladi.

Agar, inspekstiya/audit davomida nomuvofiqlik qayd etilmasa, mazkur inspekstiya/audit tugagandan keyin 28 kun davomida qaror qabul qilishi kerak.

Shikoyat va apellyastiya uchun sertifikatlash organida faoliyat yurituvchi bo'lim faoliyat yuritadi. Agar sertifikatlashtirish organi hech qanday chora ko'rilmasa, GLOBALG.A.P. sekretariatiga murojaat qilish mumkin. Buning sekretariat saytidagi maxsus blanka to'ldiriladi va jo'natiladi.

Agar joriy inspekstiya/audit davomida nomuvofiqlik aniqlansa, sertifikatlashtirish organi tomonidan quyidagi sankstiyalarni qo'llanilishi kerak:

Ogohlantirish;

Mahsulot bilan bajarilayotgan barcha operastiyalar to'xtatiladi;

Shartnoma bekor qilinadi

Agar alohida ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchilar guruhi dastlabki inspekstiya o'tkazilgandan so'ng 28 kun mobaynida majburiy talablarning 100% va ikkinchi darajali talablarning 95% bajarilishini ta'minlamasa GLOBALG.A.P. ma'lumotlar bazasida mazkur ishlab chiqaruvchilar "ochiq nomuvofiqlik" ka ega sifatida qayd etiladi.

Agar ogohlantirishdan keyin 3 oy mobaynida bu kamchilik bartaraf etilmassa, sertifikat berilishidan oldin to'liq tekshiruvdan o'tkaziladi. Agar ogohlantirishdan so'ng nomuvofiqlik bartaraf etilmassa, mahsulot bilan amalga oshirilayotgan barcha operastiyalar to'xtatiladi. Bu sankstiya bitta mahsulotga, bir necha mahsulotga yoki barcha mahsulotlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Mahsulotlar bilan olib borilayotgan operastiyalar qisman to'xtatilishi mumkin emas. Nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun so'nggi muddat sertifikatlashtirish organi va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kelishiladi (bu muddat 12 oydan ortiq bo'lishi mumkin emas). Sankstiya qo'llanilayotgan vaqt davomida (mahsulot bilan amalga oshirilayotgan barcha operastiyalar to'xtatilganda) ishlab chiqaruvchi GLOBALG.A.P. logotipi, savdo belgisi, listenziyasi va sertifikatidan foydalanishi mumkin emas.

Belgilangan muddat davomida qo'llanilgan sankiya sababi bartaraf etilmassa, shartnomani bekor qilish sankstiyasi qo'llaniladi. Shartnomani bekor qilish sankstiyasi quyidagi holatda qo'llaniladi:

Sertifikatlashtirish organi firibgarlik to'g'risida dalil topsa yoki GLOBALG.A.P. talablariga muvofiqligiga ishonmasa;

Ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchilar guruhi sertifikat muddati tugagandan so'ng ham ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni realizastiyasida undan foydalanganligiga dalil topilganda. Shartnomani bekor qilinish sankstiyasi qo'llanilgandan keyin GLOBALG.A.P. ga doir barcha imkoniyatlardan foydalanish butunlay ta'qiqlanadi.

Mazkur sankstiya qo'llanilgandan so'ng 12 oy mobaynida GLOBALG.A.P. bo'yicha sertifikatlashtirilishiga ruxsat berilmaydi.

GLOBAL G.A.P. sertifikat faqat ariza yozgan yuridik shaxsga beriladi. Sertifikat bir yuridik shaxsdan ikkinchisiga berilishi mumkin emas. Bunday holatlarda to'liq inspekstiya o'kaziladi va yangi yuridik shaxsga yangi GGN – qayd etilish raqami beriladi.

Sertifikatlashtirish stikli 12 oy davom etadi. Dastlabki sertifikatlashda sertifikatning amal qilish davomiyligi 1 kuni kam bir yilni tashkil etadi.

Sertifikatlash organi sertifikatlash stikli va amal qilish muddatini kamaytirishi mumkin, ammo bu davomiyligini uzuaytirish mumkin emas.

Sertifikatlashtirish sohasi, amal qilish muddatini sertifikatda aniq va ravshan 8 ko'rsatib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Takrorlash uchun savollar:

1. GLOBAL G.A.P. sertifikati haqida ma'lumot bering.
2. Sertifikatlashtish sikli necha oy davom etadi.
3. GLOBAL G.A.P. sertifikatini qanday olish mumkin:

4-Mavzu; Sertifikatlashtirish

Reja;

1. Sertifikatlashtirish bo‘yicha asosiy tushunchalar va atamalar
2. O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan va hududidan olib chiqilayotgan maxsulotlarini sertifikatlashtirish
3. O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi

Sertifikatlashtirish bo‘yicha asosiy tushunchalar va atamalar

Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko‘rsatkichlariga javob berishi kerak. Sifat ko‘rsatkichlari esa ma’lum belgilangan talablarga muvofiq mos kelishi lozim. Muvofiqlik o‘z navbatida ma’lum standartga yoki boshqa me’yoriy hujjalarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni setifikatlashtirish mumkin. Xo‘s, sertifikatlashtirish tushunchasi nima?

Sertifikatlashtirish-guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma’nolarini bildiruvchi certifus (lotincha) so’zidan olingan bo’lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqigini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqaydigan faoliyatni bildiradi.

Sertifikatlashtirish deganda kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

“Sertifikatlashtirish” tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlash-tirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha maxsus qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning “Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyaning akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari” qo‘llanmasiga kirkazilgan.

Qayta ishlangan Xalqaro standartlashtirish tashkilotining qo‘llanmasida “sertifikatlashtirish” atamasining faqatgina izohlari berilgan:

- sertifikatlashtirish umumiyligi atama bo‘lib, mahsulot, texnologik jarayon va xizmatlarning sertifikatlash-tirishda muvofiqlikni sertifikatlashtirish uchinchi tomonning qatnashishi tushuniladi;

- sifat tizimini baholash sohasidagi taraqqiyot sifat tizimini sertifikatlashtirish bo‘yicha yangi ta’minlov-chining imkoniyatlarini sertifikatlashtirish/ tushuncha zaruriyatini tug‘dirmoqda.

Muvofiqlik atamasi mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o‘z tarkibiga oladi. Bunda muvofiqlikni uchta ko‘rinishi - muvofiqlik bayonoti, muvofiqlikni attestatlash, muvofiqlikni sertifikatlashtirish belgilaydi. Muvofiqlik bayonoti deb etkazib beruvchining mahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me’yoriy hujjatga to‘la-to‘kis muvofiqlik xaqida butun ma’suliyatni o‘z ustiga olganligini bayon etishiga aytildi. Bu atamani so‘nggi vaqtarda “o‘z-o‘zini sertifikatlashtirish” tushunchasi bilan almashilayotgani qayd qilinmokda. O‘z-o‘zini sertifikatlashtirish deganda mahsulot ishlab chiqaruvchi tomon butun mas’uliyatni o‘ziga olgan holda sertifikatlashtirishni o‘zini o‘tkazadi va mahsulotning

kerakli darajada sifatliliqi haqidagi kafolatni o‘z ustiga oladi. Bunday sertifikatlashtirish faoliyatini o‘z-o‘zini sertifikatlashtirish deb yuritiladi.

Muvofiqlikni attestatlash uchinchli tomon tarafidan “sinov laboratoriyaning bayonoti” tushunilib, ma’lum namuna mahsulotga bo‘lgan talablarni belgilovchi ma’lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

Sertifikatlashtirish deganda mahsulot buyum, mol yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o‘tkaziladigin faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot buyum, mol ning sifati haqida iste’molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi.

Yana bir zarur atamalardan biri “sertifikatlashtirish tizimi” bo‘lib, u quyidagicha ta’riflanadi: Sertifikatlashtirish tizimi - muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o‘tkazish uchun ish tartibi qoidalariiga va boshqarishiga ega bo‘lgan tizimdir.

“Sertifikatlashtirish tizimi” atamasidan tashqari Sertifikatlashtirish sxemasi kiritilib, uni quyidagicha ta’riflanadi: “Muvofiqlikning sertifikatlash-tirilishini o‘tkazishdagi uchinchli tomon faoliyatining tarkibi va tartibi”.

Sertifikatlashtirish tizimlarida qatnashuvchi uchta tushuncha to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz: sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi va sertifikatlashtirish tizimi a’zosi.

Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish deganda sertifikatlashtirish tizimining qoidalariiga muvofiq guvohnoma talabgoriga berilgan sertifikatlashtirishdan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi deb ushbu tizimning qoidalariiga binoan faoliyat ko‘rsatadigan, lekin tizimni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmagan sertifikatlash-tirish idorasi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimi a’zosi deganda ushbu tizimning qoidalariiga binoan faoliyat ko‘rsatadigan va tizimni boshqarishda qatnashadigan sertifikatlashtirish idorasi tushuniladi. Sertifikatlashtirish ikki xil bo‘ladi: majburiy va ixtiyoriy. Mahsulotni u yoki bu sertifikatlashtirishga oidligi, uni tashqi muhitga, inson salomatligiga ta’siri asosiy mezon hisoblanadi. Ana shuning uchun tashqi muhitga, inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi mahsulotlar, albatta, majburiy sertifikatlashtirishga mansub bo‘ladi, qolgan mahsulotlar esa sertifikatlashtirilishi ixtiyoriyidir. Majburiy sertifikatlashtirish deganda sertifikatlashtirish huquqiga ega bo‘lgan idora tomonidan mahsulot, jarayon, xizmatning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda ishlab chiqaruvchi bajaruvchi, sotuvchi ta’minlovchi yoki iste’molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

Hozirgi sharoitda tashqi mamlakatlar bilan savdoni, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni, fan va texnikani rivojlanishi uchun hamda chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash, ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun muntazam ravishda sinovlardan o‘tkazish ehtiyoji ortib bormoqda. Sinovlarni ko‘pincha uchinchli tomon deb

ataluvchi shaxs yoki tashkilot amalga oshiradi va ko‘riladigan masalada qatnashayotgan tomonlar odatda ta’minlovchi birinchi tomon/ va xaridor /ikkinchi tomon/ ning manfaatlarini himoya qilib, mutlaqo mustaqil ravishda ish ko‘radilar.

Uchinchi tomon tarafidan qilinadigan sertifikatlash-tirish ishlab chiqaruvchilarning ishonchiga sazovor bo‘lmoqda va shu sababli bunday yo‘l keng qo‘llanilib, salmoqli ravishda tarqalmoqda. Turli mamlakatlarda uchinchi tomon tarafidan bajarilayotgan sertifikatlash-tirish tizimini tashkil etish amalda shuni ko‘rsatmoqdaki, uni turlicha tashkil qilish mumkin ekan: ishlab chiqaruvchi assosiyasiyalar, yirik iste’molchilar, standartlashtirish milliy tashkilotlari tomonidan, masalan, Fransiya va Angliyada 60-yillar boshida ite’molchilar tomonidan harbiy maqsadlar uchun elektronika mahsulotlarini sertifikatlashtirish tizimi yaratildi.

Ayrim olingan mamlakat miqyosida yaratilgan milliy tizimlar majburiy bo‘lgan standartlar doirasini qamrab oladi. Masalan, birinchilar qatorida milliy miqyosda qimmatbaho toshlarni sertifikatlashtirish tizimlari qo‘llanilgan.

Sertifikatlashtirish tushunchasi keng ma’noda uchinchi tomon tarafidan o’tkaziladigan texnikaviy me’yorga, ish uslubiga, qoidalariga muvofiqligini qamrab olgan har qanday tekshiruvdir. Shuning uchun sertifikatlashtirishni tekshiruv deb hisoblab, bosim ostidagi idishlarni, portlash havfidan himoyalangan qurilmalarning, kemalarning, suzish vositalarining, tayyoralarning, aviasiya qurilmalarining, atom reaktorlarining va tog‘ texnikasining ishlatishdagi havfsizligini ta’minlash uchun texnikaviy nazorat o‘rnatuvchi idoralar shartli tekshiruvni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan va hududidan olib chiqilayotgan maxsulotlarini sertifikatlashtirish

Mamlakatimizda mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash-tirish O‘zbekiston Respublikasining 1994 yil 28 dekabrdagi “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida” gi Qonuniga asosan amalga oshiriladi. Unga binoan:

“Mahsulotni sertifikatlashtirish” (keyinchalik sertifikatlashtirish) mahsulotga o‘rnatilgan talablarga mosligini tasdiqlovchi faoliyat;

“Muvofiqlik sertifikati” – mahsulotni o‘rnatilgan talablarga mosligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida berilgan hujjat;

“Muvofiqlik belgisi” ushbu mahsulot yoki xizmat standartga yoki boshqa me’yoriy xujjat talablariga mosligini ko‘rsatuvchi, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan, mahsulotni markalash yoki xizmat hujjatlarida qo‘llaniladigan belgi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- inson sog‘lig‘i va xayoti yuridik va jismoniy shaxslarni mol-mulkiga, atrof-muhitga xavfsizligini ta’minlash uchun mahsulotlarni nazoratini amalga oshirish uchun;
- xalqaro bozorlarda, mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta’minlash uchun;
- mamlakatimiz va qo‘shma korxonalar, tadbirkorlarni xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdoda qatnashish uchun sharoit yaratish uchun;
- iste’molchilarni sifatsiz mahsulotdan himoya qilish (sotuvchi, bajaruvchi) uchun;

- ishlab chiqaruvchining arizasiga muvofiq mahsulotlarni sifat ko'rsatkichlarini tasdiqlash (sotuvchidan, bajaruvchidan) uchun.

O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyul 318-sonli "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori asosida ishlab chiqilgan, Adliya Vazirligida 2005 yil 18 martda 1458 sonli raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Mahsulotlarni sertifikatlash-tirish qoidasi" ga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi sertifikatlash-tirish milliy tizimida (keyinchalik O'z SMT) mahsulotlarni, shu jumladan, import mahsulotlarni sertifikatlashtirishga tayyorlash va o'tkazish tartibiga bo'lgan umumiyl talablarni belgilaydi.

O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi yurtimizda ishlab chiqarilgan va chet eldan keltirilgan mahsulotlarni sertifikatlashtirishni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar, (keyinchalik - SI) ular yo'q o'lgan holda sertifikatlashtirish milliy idorasi (keyinchalik - SMI) o'tkazadilar.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar ro'yxati, vazirliklar, Davlat qo'mitalari takliflarini inobatga olgan holda o'rnatilgan tartibda sertifikatlashtirish milliy idorasi tomonidan aniqlangan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyul 318-sonli "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorining 2-ilovasida keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi

Sertifikatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatda faol qatnashuvchi shaxs bu ekspert-auditordir. U odatda sifat tizimlarini, ishlab chiqarishni va mahsulotni sertifikatlashtirishda, sinov laboratoriyalarini akkreditlashda va boshqa ishlarda qatnashishi mumkin.

Ekspert-auditor deb, sertifikatlashtirish sohasida muassasa va korxonalar faoliyatini baholash va nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan attestatlangan shaxsga aytildi.

Ekspert-auditor sifatida "O'zstandart" tomonidan belgilangan tartibda attestatlangan fan, sanoat, maishiy xizmat, institutlar va boshqa tashkilotlarning vakillari hamda belgilangan hujjatlar bilan ishslashda etarli chuqur bilimga ega bo'lgan xususiy shaxs ham bo'lishi mumkin.

Ekspert-auditor quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mahsulot, jarayon, xizmatlarni, sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot, jarayon va xizmatlarning tavsiflarini hamda sertifikatlashtirilgan sifat tizimlarini va ishlab chiqarishning turg'unligini nazorat qilish;
- sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlash idoralari, sinov laboratoriyalarini (markazlarini) va ularning faoliyatini nazorat qilish;
- sertifikatlashtirishda tavsiyalar berish.

Ekspert-auditor o‘z faoliyatini sertifikatlashtirish milliy idorasi, bir turdag'i mahsulotni sertifikatlashtirish idoralari, sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish doirasida amalga oshiradi.

Ekspert-auditor muayyan talablarga javob berishi lozim:

- to‘liq oliv ma’lumotli va sertifikatlashtirish sohasida etarli bilimga ega bo‘lib, faoliyati sertifikatlashti-rishning ma’lum turi bo‘yicha attestatlangan bo‘lishi kerak;
- oliv o‘quv yurtini tamomlagandan so‘ng kamida 5 yillik amaliy stajga ega bo‘lishi, shundan kamida 3 yili standartlashtirish, metrologiya, sinovlar, sifatni boshqarish va ta’minlash sohalarida ishlagan bo‘lishi kerak.

Ekspert-auditor chuqur bilimli, tadbirkor bo‘lmog‘i lozim. U quyidagi sohalar bo‘yicha bilimlarni mukammal egallagan bo‘lishi shart:

- respublika sertifikatlashtirish milliy tizimining qoida va tartiblar;
- sertifikatlashtirish o‘tkazish bo‘yicha bilimlar va me’yoriy hujjatlarni tushunish;
- sertifikatlashtirish va akkreditlash bo‘yicha asosiy ishlar mazmuni;
- sertifikatlashtirish va akkreditlash bo‘yicha iqtisodiy va huquqiy asoslari;
- mamlakat ichidagi va chet ellardagi sertifikatlashtirish va akkreditlash tajribasi;
- standartlashtirish, metrologiya va sifat tizimlarining asoslari;
- tekshiruv o‘tkazish va sifatni boshqarishning statistik usullari.

Ekspert-auditortahlil qilish, mantiqiy asoslash, o‘zining fikrini qattiq va asoslangan holda himoya qilishlik; ijodiy qobiliyatga va murakkab vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish xususiyatlariga ega bo‘lishi; haqqoniy, ma’suliyatli, prinsipial ravishda hayrihoh, xushmuomalali, odobli va o‘zini tutabilishlik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak. Ekspert-auditor tekshirilayotgan ob‘ektning xodimlari bilan aloqada bo‘lish va kerakli hujjatlar bilan tanishish; ma’lumot uchun har qanday qo‘srimcha ma’lumotlar talab qilish (sertifikatlashtirish maqsadlari uchun); tizimda amaldagi me’yoriy-uslubiy hujjat-larni takomillashtirish bo‘yicha o‘z taklifini berish; sertifikatlashtiriluvchi mahsulot, jarayon, xizmatlar, sifat tizimi va ishlab chiqarish bo‘yicha rejalarini tuzatish yuzasidan o‘z mulohazalarini kiritish huquqiga egadir.

Korxonalarda sertifikatlashtirish sohasidagi ishlarni inobatga olib, sertifikatlashtirish milliy idorasi “O‘zstandart” tomonidan ekspert-auditorlar tayyorlash maxsus kurslari tashkil etilib, bu sohadagi o‘qishning tashkiliy tomonlari O‘zSMSITIning asosiy faoliyatlaridan biri deb qaralmoqda. Ekspert-auditorlarni tayyorlash odatda ikki bosqichda olib boriladi: nazariy bilimlarni olish va attestatlash natijasida ularga tegishli rasmiy hujjatlar topshirish.

Maxsus kurs tinglovchilarining nazariy bilimlarini “O‘zstandart” agentligi tomonidan tuzilgan maxsus komissiya baholaydi. Baholanish natijalari etarli darajada bo‘lsa, ularga sertifikatlashtirish milliy tizimining ekspert-auditori degan guvohnomasi beriladi (agar attestatlashdan o‘tmasa rad etiladi). Ekspert-auditorlar ularga yuklatilgan vazifalari bo‘yicha muayyan burch va ma’suliyatlarga egadirlar.

Xalqaro ISO 9000 seriyasidagi standartlar bo‘yicha ishlarnitashkil etish Oxirgi paytlarda 9000 seriyadagi ISO xalkaro standartlari to‘g‘risida ko‘p eshitayapmiz. Xush, bu standartlar kanday standartlar va nima uchun qo‘llaniladi?

Bu seriyadagi standartlar sifat tizimlarini korxonalarda tadbiq etishga mo‘ljallangan xalqaro modellar bo‘lib hisoblanadi.

Chet davlatlarda sifat tizimi bo‘lmagan korxona yoki firma bilan ishlab bo‘lmaydi. Chunki birinchidan hech kanday kafolat yo‘q, ikkinchidan esa siz shartnomaga tuzganiningizda ham, siz bilan ishlovchi boshqa sub’ektlar bundan boxabar bo‘lganlarida ularning sizga nisbatan ishonchlari kamayishi mumkin. Shu sababdan sifat tizimlariga nihoyatda jiddiy ahamiyat berishimiz kerak.

Hozirda respublikamizda xalkaro sifat tizimlarini tadbik etgan yoki bunga harakat qilayotgan korxonalar soni kun sayin ko‘payib bormokda (Chkalov nomidagi TAIChB, Qimmatli qog‘ozlar kombinati, tizimlari asosan ISO 9001, ISO 9002 va ISO 9003 standartlarida ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu modellar o‘zaro ko‘lamni bilan farq qiladi.

ISONing sifat ta’mnoti xususidagi asosiy standartlari:

ISO 9000, “Sifatni umumiy boshqarish va sifatni ta’minalash bo‘yicha standartlar. Tanlash va qo‘llash bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar”;

ISO 9001, “Sifat tizimlari. Loyihalashda va (yoki) ishlab chiqarishda, yig‘ishda va xizmat ko‘rsatishda sifatnita’minlaydigan model”;

ISO 9002, “Sifat tizimlari. Ishlab chiqarishda vayig‘ishda sifatni ta’minalaydigan model”;

ISO 9003, “Sifat tizimlari. Tugal nazoratda va sinovlarda sifatni ta’minalaydigan model”;

ISO 9004, “Sifatni umumiy boshqarish sifat tizimlarining elementlari.

Rahbariy ko‘rsatmalar”;

ISO 10011 “Sifat tizimlarini tekshirishda rahbariy ko‘rsatmalar”;

ISO 10012 “O‘lchash vositalarining sifatini ta’minalaydigan talablar”.

Bular bilan bir qatorda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti uch tilda atamalar lug‘ati yaratgan bo‘lib, mahsulot sifatini ta’minalash sohasida ularning ta’riflarini ham ishlab chiqqan. Bulardan tashqari ISO/MEK(Xalqaro elektrotexnika komissiyasi) tomonidan ham bir qancha me’yoriy hujjalalar ishlab chiqilgan. 2002 yili mazkur standartlarning yangi versiyalari qabul qilindi. Bunga ko‘ra standartlarda sezilarli darajada ham tarkibiy, ham mazmunan o‘zgarishlar kiritildi. Standartlarning soni ham 2 taga kamaydi. Agar oldingi standart (ISO 9001) bandlar 20 ta bo‘lgan bo‘lsa, endilikda ular 8 taga keltirildi. Eng asosiysi, bu standartlar ustivor sifatida sifatni doimiy tarzda yaxshilab borish siyosatini qo‘llaydi va iste’molchining talabi bajarilgan bo‘lishini talab qiladi.

Sifat menejmenti tizimini joriy etish bosqichlari. Hozirda O‘zbekistonda ISO 9000:2000 seriyasidagi standartlar qo‘llanilishi boshlangan. 1-rasmida ISO 9001:2000 afzalligining strukturaviy elementlari. 2-rasmida ISO 9001:2000 Standartlarining joriy

etilishi sabablari va shu standartlar talablariga muvofiq Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish bosqichlari keltirilgan.

Sifat to‘garaklari. Mahsulot sifatini yaxshilashda zarur va muhim omillardan biri sifat to‘garaklari (guruhlarining) faoliyatidir. Sifat to‘garaklari ishchilar, muxandislar va xizmatchilardan tashkil topgan ixtiyoriy jamoa yig‘ilmalaridir. Ularning soni va tarkibi ishlab chiqarishning ehtiyojidan va aniq ish sharoitlaridan kelib chiqadi.

Sifat to‘garaklarining asosiy maqsadi sifatni yaxshilashning tub mohiyatini anglash, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan takliflarni joriy qilishdan iborat. Buning uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ishonchlilagini, chidamlilagini oshirish, yuqori navli buyumlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish, yaroqsiz (brak) likni va reklamasiyalarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish sur’atini yaxshilash, resurslarni tejamkorlik va iqtisod qilib sarflash lozim. Ko‘pgina mamlakatlar o‘z mahsulotlarining sifatini oshirish uchun ma’lum tadbirlar, tajribalarga suyanib ozmi ko‘pmi yutuqlarga erishgan. Quyida biz dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning bu sohadagi tajribalaridan misol keltiramiz.

Yaponiya davlati dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ichida ajralib turadi. Bu erda sifat to‘garagiga alohida e’tibor bilan qaraydi. 60-yillar boshida Yaponiyada birinchi marta sifat to‘garagi vujudga keldi. Buning sababi bor, albatta. Yaponiya joylashishiga qarab aholisi zinch yashaydigan geografik ob’ekt bo‘lib, o‘zining er osti boyliklariga deyarli ega emas. Territoriyasining taxminan 70 foizi tog‘liklarni tashkil etgan bo‘lib, sanoatning rivojlanishida o‘zining hom ashvosiga umid bog‘lashi o‘rinsiz bo‘lar edi. Bu holda Yaponiya o‘z xalqini oziq-ovqat bilan ta’minlay olmas, sanoatni esa etarli darajada rivojlanira olmasdi. Sanoat va energetika uchun tashqaridan keltiriladigan hom ashvo tilla, qimmatbaho toshlar va eksport mahsulotlari bilan to‘lanishi mumkin edi.

AQShda sifat to‘garaklaridagi tashkiliy guruhlarga qo‘yiladigan talablar:

1. To‘garakda qatnashish ixtiyoriy bo‘lishi lozim. To‘garak a’zolari va ularning rahbarlari hal qilinuvchi muammolarni o‘zları tanlaydilar. To‘garakda faqat ma’muriyatga tegishli muammolar ko‘rilmaydi. To‘garakni tuzilishida muammolarni hal qilish prinsiplarini o‘rganadilar, bu o‘z navbatida to‘garakning kelgusidagi ishlarini muvaffaqiyatli bo‘lishiga asos bo‘ladi.

2. To‘garak qatnashchilari ish vaqtida yig‘ilishadi (haftasiga 1 soat).

Yig‘ilishning umumlashgan tartibi:

- ochish, yangi a’zolarni qabul qilish, umumiy tavsifga ega bo‘lgan yangiliklar va tashkiliy masalalar - 5 minut,

- to‘garak ishining xafthalik yakuni - 5 minut

- mahorat oshirishda yangiliklar va yangi materiallarni o‘rganish haqida -5 minut,

- amaliy masalalarga qo‘llanuvchi yangi o‘zlashtirilgan bilimlar 40 minut,

- yakun yasash, natijalarni baholash - 5 minut.

To‘garak rahbarlari etarli malakaga ega bo‘lmog‘i, ishonch qozonmoqligi va to‘garakni boshqarishga ihtiyyoriy roziliklarini bermog‘i lozim. Ular firma boshliqlari va kasaba uyushmalari bilan aloqada bo‘lishlari shart.

3. Hamma darajadagi mutaxassislar texnikaviy maslahatchilar sifat to‘garagi ishiga yordam berishga majburdirlar, ularning iltimosiga binoan majlislarga qatnashishi ham mumkin.

4. Kichik va o‘rtal holdagi firmalar o‘zlarining sifat to‘garagi ishlarini muvofiqlashtiruvchi xodimiga ega bo‘ladi, katta firmalarda esa bunday shaxslar bir va undan ortiqni tashkil etishi mumkin. Muvofiqlashtiruvchi xodim sifat to‘garagi va to‘garaklar orasida hamda rahbariyat o‘rtasidagi aloqa o‘rnatuvchi shaxsdir.

5. Firma tarkibidagi o‘rta rahbarlar ustalar, texnologlar tomonidan doimiy himoya qilinadi.

6. Firmanın eng yuqori rahbariyati tomonidan sifat to‘garaklarining rejalarini himoya qilish kafolatlanadi.

Sifat to‘garaklarining samaradorligi haqidagi fikr juda e’tiborga sazovordir, so‘ralganlardan 30 foizi har bir sarflangan dollar evaziga 1 dan 3 dollargacha oylik tariqasida, 20 foizi esa 4 dan 12 dollargacha olganliklarini aytdilar. 48 foizi esa o‘zlarining bu masalada aniq ma’lumotlari yo‘qligini ko‘rsatdi, faqatgina 2 foizi esa bu harakatlar o‘zini o‘zi oqlayolmaydi deb javob berdi.

So‘rov natijalaridan ko‘rinib turibdiki, hamma tekshirilgan to‘garaklarning faqatgina 37 foizi samarali ishlagan. Buning natijasida xulossal qilinib, to‘garakning tayyorlov ishlariga yanada e’tibor berildi. Maxsus rejalar tuzildi, rejalarни bajarish uchun maxsus muvofiqlashtiruvchi xodim tayinlandi. To‘garak rahbarlariga bo‘lgan talablar qayta ishlab chiqildi. O‘qish dasturlari kuchaytirildi, birinchi navbatda to‘garak rahbarlarining malakasiga e’tibor oshirildi. Ular statistik nazorat usullarining asoslarini o‘rgandi, mavjud muammolarni hal qilish usullari va boshqa o‘quv uslubiy taraflariga e’tibor berildi. Bundan tashqari baxs o‘tkazish qoidalari, tortishuv va janjallarni hal qilish usullari, eshitishga o‘rgatish, janjalli sharoitlarni keltirmaslik kabilar to‘garak rahbarlariga maxsus kurs tariqasida o‘rgatildi. Natijada to‘garak rahbarlari to‘garak a’zolarini o‘qitishni boshladi, hamda to‘garaklar faoliyatini tashkil qilishda katta e’tiborni uslubiy ta’minlashga qaratdilar.

Bu maqsadlarda ko‘pgina kompaniyalar, universitetlardagi mutaxassislar yoki maslahatchi firmalar yordamiga murojaat qiladi.

Sifat to‘garaklaridan foydalanishda, amerikalik korxona egalari ularning ishlarini mahalliy sharoitlarga moslashgan holda olib boradilar va shuning uchun aksariyat hollarda Amerikadagi to‘garaklarning faoliyati Yaponiyadagidan farqlanadi. Xususan, agar Yaponiyada faqat 50-60 to‘garaklar o‘zlarining darslarini ish soatlarida bajarsa, Amerikadagi to‘garaklar esa o‘z rejalariga ko‘ra, deyarli ishchi soatlarda o‘tkaziladi. Amerikadagi korxona egalari sifat nazorati to‘garaklarini joriy qilishda ishchilarni to‘garaklarda qatnashishini har taraflama rag‘batlantiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, to‘garaklarning "insonga" bo‘lgan yo‘nalishi, alohida o‘rin egallaydi. Masalan, "Ford"

kompaniyasi o‘zining to‘garaklarini yaratilishining asosiy maqsadini "insonning fikr almashuvini yaxshilash, uning ishdagi sifatini, ijodiy potensialini oshirish" deb e’lon qilgan. Ayrim G‘arbiy Evropa kompaniyalari boshqarishning Yaponiya usuli deb ataluvchi usulini o‘rganishda ishlarining oqilona elementlarni joriy qilish bilan boshladilar. Eng ko‘p tarqalgani Sifat to‘garaklari bo‘ldi. Birinchilardan bo‘lib, bu usulni qo‘llagan davlat Buyuk Britaniyadir. Biroz keyinroq Fransiyada, Germaniyada, Italiyada, Ispaniyada, Niderlandiyada shunga o‘xhash to‘garaklar tarqala boshladi. Hozirgi vaqtida shunday to‘garaklar deyarli hamma mamlakatlarda mavjuddir. G‘arbiy Evropa korxonalarida to‘garaklarning natijalarini joriy qilish deyarli yuqori samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda.

Sifat to‘garaklarining faoliyati faqatgina korxona ishlarini yaxshilash bilan bir qatorda boshqarish apparatining ishlarini yaxshilash, ish yuritishni osonlashtirish, hujjatlar sonini kamaytirish, kelishib olish va qarorlar qabul qilishni takomillashtirish masalalari bilan ham shug‘ullanadi.

Mutaxassislarning fikricha G‘arbiy Evropa firmalarida to‘garaklarning joriy bo‘lishi Yaponiyanikidan jadalliroq ekan. Belgiyada shunday to‘garaklar tashabbuskorlari sifat to‘garagining amaliy assosiasiyasiga birlashgan. Mamlakat bo‘ylab sifat to‘garaklari faoliyat ko‘rsatayotganliklari qayd qilingan. Mamlakatdagi ko‘pgina firmalar sifat nazoratini yalpisiga joriy qilish yo‘lini tutdi. Bu esa o‘z navbatida sifat to‘garagining mavqeini birmuncha oshirdi.

1986 yili Italiya milliy assosiasiyasi sifat to‘garaklarini tashkil qildi va hozirga kelib bu mamlakatda 400 dan ortiq korxonalarda sifat to‘garaklari mavjud bo‘lib, ularning soni 4 mingdan ortib ketdi.

Mutaxassislarning fikrlariga qaraganda korxonalarda tuzilgan sifat to‘garaklari 96 foiz yutuqlarga ega bo‘lmoqda. Sifat to‘garagining Shved assosiasiyasi 110 korxonani birlashtirgan, hammasi bo‘lib mamlakatda 500 shirkatlar o‘z rejalariga ega. Bulardagi eng faol sifat to‘garaklarining soni 30 dan ortiqni tashkil qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasida sifat to‘garaklari ham asta-sekin ko‘paya bordi. 1980 yilda mamlakat bo‘yicha 400 mingdan ortiq "Sifat to‘garaklari" bor deb hisoblanar edi. 1985 yilga kelib, ularning soni 500 mingdan oshdi. Xitoy to‘garaklari muxandis-texnik xodimlarni, ishchilarni va boshqaruv bo‘g‘inidagi xizmatchilarni birlashtiradigan to‘garaklarni o‘z ichiga oladi.

Bu tadbirlarning hammasi nimalarga olib keladi, sanoatga nima beradi?

Dastavval, korxona xodimlari tomonidan o‘zlarining maqsadlari va vazifalarini aniq bilish va ko‘rishdan iborat. Sifat to‘garaklari kollektivga ta’sir ko‘rsatib, ularni mahsulotning sifatini yuqori darajada ta’minalashga xodimlarni safarbar qiladi.

Shuning uchun ko‘pgina mamlakatlarda bu masalaga birinchi navbatdagi masala deb qaralmoqda. Bu muammoni echishda korxona rahbari va kollektiv tadbirlarga ishonch hosil qilib, qo‘lni qo‘lga berib bir tanu, bir jon bo‘lib harakat qilishlarini hayotning o‘zi taqozo qilmoqda. Ana shundagina sifat to‘garaklari o‘z samaralarini bera boshlaydi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Sertifikatlashtirishning tarixini bilasizmi?
2. Sertifikat nima?
3. Respublikamizda sertifikatlashtirishning eng yuqori rivojlanish davri qaysi vaqtarga to‘g‘ri keladi?
4. Ekspert-auditorlar kim?
5. Qanday sohalardagi ekspert-auditorlarni bilasiz?
6. Ekspert-auditorlarga nisbatan qanday talablar qo‘yiladi?
7. Sifat to‘garaklari ilk bora qaerda tashkil topgan?

5-Ma’ruza; Oziq-ovqat va sertifikatlashtirish tartibi.

Reja;

1. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmentining HACCP tizimi
2. Sertifikatlashtirish uchun sinovni o’tkazish.

HACCP ingilizcha so’z birikmasi bo’lib, Hazard Analysis and Critical Control Points (rus adabiyotlarida ba’zan “HACCP” atamasining o’rniga uning analogi “ARKKT” – Analiz Riskov i konstepstiya Kriticheskoy Kontrolnoy Tochki , buni o’zbek tiliga tarjima qiladigan bo’lsak “Xavflar tahlili va kritik nazorat nuqtalari” ma’no kelib chiqadi, ba’zida esa shunchaki “XACCP” qisqartmasidan foydalilanadi) – bu umumiy qilib aytganda, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshqarish tizimidir. Agar yanada aniq izohlaydigan bo’lsak, HACCP – bu oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning barcha “zanjiri” bo'yicha, xomashyo materiallari va qadoqlashdan tortib to iste'molchilarga tayyor mahsulotlarni etkazgungacha bo'lgan jarayonlarni boshqarish metodologiyasidir.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmentining HACCP tizimi hozirgi kunda juda yuqori nufuzga ega. Bu tizim XX asrning 70-yillarida (1971 yilda), ya’ni odamning fazoga ilk parvozları boshlangan kezlari AQShda o’ylab topilgan edi.Orbitaga chiqqan kosmonavtlar uchun mahsulotlar tayyorlaydigan «Pillsbury» korporasiyasi AQShning havo parvozi va fazo bo’shilig’ini tadqiq qilish milliy boshqarmasi – NASA bilan birgalikda ishlab chiqarishning butun jarayonini nazorat qilib turish kerak, degan xulosaga kelgan edi.90- yillar boshida Evropa ittifoqi bu tizimni oziq-ovqat sanoatida eng xavfsiz tizim sifatida qabul qildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo’jaligi bo'yicha tashkiloti (FAO) va Butunjahon sog’lijni saqlash tashkiloti (VOZ) tomonidan hamkorlikda moliyalashtiriladigan hukumatlararo idora – Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha «Kodeks Alimentarius komissiyasi ex iementarius Commission) tomonidan 1993 yili XACCP tizimi va uni joriy qilish bo'yicha qo'llanma ishlabchiqildi.

XACCP ishlab chiqarishni butun zanjiri, ya’ni dastlabki xom ashyodan yakuniy mahsulotgacha qo’llanishi mumkin bo’lgan, oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta’minalash tizimi talablarini belgilaydi. Bu tizim talablarini mustaqil yoki ISO 9000 standartlari asosidagi sifatni boshqarish tizimlari bilan birgalikda qo’llash mumkin.

Bugungi kunda Evropa ittifoqi, AQSh, Kanadada HACCP usullarini qo’llash va joriy qilish hamda HACCP tizimini sertifikatlashtirish majburiy hisoblanadi.

HACCPning prinstiplari. HACCPning zamонавиу тизимлари асосида корхоналарда HACCP ni ishlab chiqish, joriy qilish va muvofaqiyatli boshqarishda ketma-ket joriy qilinuvchi ettita prinstip yotadi:

- 1-prinstip. Risklar (xatarlar)ning tahlilini o’tkazish.
- 2-prinstip. Kritik Nazorat Nuqtalarini (KNN) aniqlash.
- 3-prinstip. Har bir KNNliri uchun kritik chegeralarni aniqlash.
- 4-prinstip. KNN monitoring tizimlarini o’rnatish.
- 5-prinstip. To’g’rilovchi amallarni o’rnatish.
- 6-prinstip. Yozuvlarni joriy qilish prosteduralarini o’rtashi.
- 7-prinstip. HACCP tizimini tekshirish prostedularini o’rnatish.

HACCPning afzallikkari Iste’molchilar har doim sog’lig’i uchun mahsulotlarning sifatli va xavfsiz bo’lishi tarafdoi ekan, demak ishlab chiqaruvchilar sifatli xom ashiyoladan foylanaishlari hamda sifatli va xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarishlari lozim.

Ma’lumki, insonlar ozuqa sifatida iste’mol qiladigan gusht-sut mahsulotlari sifati hamda em-xashak sifati orasidagi to’g’ri bog’liqlikni keltirish mumkin.

Ishlab chiqarish amaliyotida HACCP tizimining tezlik bilan tarqalishi, butun dunyo uni tan olishi va keng doirada qo’llanishi undan kim foydalansa, u bir qancha afzalliklar bilan ta’minalanadi, xususan

HACCP oziq-ovqat mahsulotlarni ishlab chiqarish stikli – xomashyoni olishdan tortib to uni iste’molchilarga etib borgunigacha bo’lgan barcha bosqichlarida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizlik parametrlarini qamrab oluvchi tizimli yondashuvga asoslangna;

ahsulot nuqsonlarini bartaraf etish bo’yicha xarakatlarning kechikmasligi yuzasidan oldini oluvchi chora-tadbirlardan foydalanish; oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minalash bo’yicha javobgarlik aniqlash;

korxonaning imkoniyati va asosiy resurslaridan kelib chiqqan holda ularning kritik jarayonlari va konstrastiyasini xatosiz aniqlash;

ishlab chiqarishning umumiy hajmida nuqsonlar ulushini kamaytirish orqali sezilarli darajada iqtisodga erishish;

sudda ko’riliши mumkin bo’lgan ishlarda va noroziliklarni tahlil qilishda muhim hisoblangan ishlab chiqarish mahsulotlari xavfsizligi hujjatlashtirilib tasdiqlanganligiga ishonch hosil qilish.

HACCP tizimini joriy qilish korxonalarga bir qator tashqi afzalliklarni beradi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga nisbatdan iste'molchilarning ishonchi oshadi;

mavjud bozorlardagi sotish ko'lami kengayadi va yangi bozorlarga chiqish imkoniyati ochiladi;

muhim tenderlarda qatnashishda qo'shimcha afzalliklarga erishadi;

mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshadi;

mahsulotning barqaror sifatini ta'minlash orqali reklamalar miqdorining kamayishiga erishiladi;

sifatli va xavfsiz oziq-ovqat ishlab chiqaruvchining reputasiyasi (obro'si) ortadi.

Ishlab chiqarish amaliyotida HACCP tizimining tezlik bilan tarqalish, butun dunyo uni tan olishi va keng doirada qo'llanishi undan kim foydalansa, u bir qancha afzalliklar bilan ta'minlaydi.

Ana shunda ishlab chiqarishning biron bosqichida oziq-ovqat xavfsizligiga bo'ladigan har qanday tahdid imkoniyati istisno etilgan bo'lur edi. Butun ishlab chiqarish jarayonida potensial tahdidlarning oldini olishga asoslangan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmentining tizimini Hazard Analysis and Critical Control Points (HACCP) taminlaydi. Tizimli yondashuvga asoslangan va butun oziq-ovqat silsilasida oziq-ovqat mah sulotlari xavfsizligini uzlusiz ta'minlashni kafolatlaydigan HACCP tizimi o'z samarasini ko'rsatdi va oradan shuncha yillar o'tib, kurrai zaminimizdagи ko'pgina mamlakatlarda keng ommalashdi.

Hozirgi kunda HACCP prinstiplariga rioya qilish Evropa Ittifoqi mamlakatlarida majburiydir (28.01.2002 yildagi 178/2002/ES reglamenti oziq-ovqat bo'yicha qonun hujjalarning umumiy prinstiplari va talablarini belgilaydi).

Bojaxona ittifoqiga a'zo har uchala mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlari etishtiruvchilari (tayyorlovchilari)ning hammasi 2014 yil 1 iyuldan e'tiboran HACCP tartib-taomillarini joriy etishlari shart (Bojaxona ittifoqining «Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida»gi TR TS 021/2011-raqamli texnik reglamenti).

Mazkur reglamentga muvofiq mahsulot etishtiruvchilarning (tayyorlovchilarning) hammasi HACCP prinstiplariga asoslangan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimlarini ishlab chiqishlari, joriy etishlari va qo'llab-quvvatlashlari kerak. Ana shu talablar O'zbekiston korxonalariga ham taalluqlidir. Agar ular oziq-ovqat mahsulotlarini nafaqat Evropaga, balki Rossiya, Qozog'iston va Belarusga eksport qiladigan bo'lalar, mazkur tizimlarni joriy etishlari va qo'llab-quvvatlashlari lozim bo'ladi. HACCP tizimi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga doir boshqa tizimlardan farqi.

Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligining an'anaviy prinstiplarida asosiy maqsad pirovard mahsulotga to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, mahsulot tayyor bo'lidan keyingina tanlov asosidagi tekshiruvga ro'baro' bo'ladi.

HACCP tizimida xom ashyo va tayyor mahsulotni, ta'bir joiz bo'lsa, qadam-baqadam kuzatib borish prinstipi inobatga olinadi. Bunda korxonadan xom ashyon ni faqat ishonchli bo'lgan mahsulot etkazib beruvchilardan olish taqozo qilinadi. Negaki,

sifatsiz xom ashyodan sifatli mahsulot tayyorlash mushkul ishdir. Xuddi shuningdek mahsulot kimga etkazib berilayotganligini ham juda puxtalik bilan kuzatib turish lozim. Bu narsa iste'molchilar xavfsizligiga tahdid solingen taqdirda mahsulotni kimdan chaqirib olish mumkinligini bilish uchun zarurdir.

HACCP tizimining qiymati muayyan tarmoqning o'ziga, korxona, bino, foydalanilayotgan uskuna, texnologik jarayonlarning holatiga, foydalanilayotgan oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi yuzasidan korxonada qanday standartlardan foydalanilayotganligiga bog'liqdir. Agar sanab o'tilganlarning hammasi yaxshi holatda bo'lsa, HACCP tizimini joriy etish ancha arzonga tushadi. Bundan tashqari, mazkur tizim samarali amal qilishi uchun, uni muntazam ravishda bir maromda saqlab turish uchun korxona tomonidan sodir etiladigan xarajatlar ham bor.

Xodimlarni muttasil o'qitib-o'rgatish, hujjat yuritish va shu singari ishlar bilan bog'liq xarajatlar shular jumlasidandir. Xodimlarning bilim va ko'nikmalari takomillashtirilmas ekan, hatto eng zamonaviy uskunalar ham oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligini ta'minlashga qodir bo'lmaydi.

Evropalik ekspertlarning ma'lumotlariga qaraganda HACCP tizimini ishlab chiqish va joriy etishga kiritilgan investisiyalar odatda 2–3 yil mobaynida qaytadi, korxonani modernizastiya qilish yuzasidan katta ishlar qilingan taqdirda ham shunday bo'ladi.

Biz oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi menejmenti tizimlarini joriy etish borasida xalqaro tajribaga ega bo'lgan maslahatchilarni, bu sohadagi eng yaxshi mutaxassislarini tanlab olmoqdamiz. Maslahatchilarimiz qanchadan-qancha korxonalarda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmentiti tizimlari joriy etilishini kuzatib turdilar va mijozlarimiz sertifikatlashtirishdan yaxshi o'tdilar. Ayni bir vaqtida mahalliy maslahatchilarni ham jalg etmoqdamiz, ular tajriba orttirishiga ko'maklashmoqdamiz.

Shuni aytib o'tish lozimki, HACCP tizimi asosan sifatni ta'minlashga profilaktik yondoshuvda qurilgan va shuning uchun na faqat ishlab chiqarish jarayonilari davomida nazorat vositasi bo'lib hisoblanib, balki, yangi mahsulotlarni ishlab chiqishda sifatni loyihalashtirish uchun qo'llaniladi. HACCP tizimini qo'llashdan asosiy maqsad barcha bosqichlarda (tayyorlash, qayta ishlash, ishlab chiqarish, qadoqlash, saqlash, tashish, tarqatish, yuklash-tushirish ishlari, sotishga taklif etish va iste'molchilarga etkazib berish) jarayonlarini uzluksiz tekshirish, tahlil qilish va monitoringini o'tkazish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligi va gigienasi ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

To'g'ri qo'llanish sharoitlarida HACCP tizimi o'zida oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini samarali boshqarish ishonchini beruvchi sifatida tavsiyalarni namoyon etadi. Tizim korxonalarga xavfsiz mahsulot etkazish va keraksiz vaziyatlar yuzaga kelishini oldini olishni rejalashtirishni imkoniyatini beradi.

HACCP tizimining asosiy tamoyillari:

Ichki bozorda ishlab chiqaruvchilar boshqa davlatlarning chakana savdo tarmog'ida ishtirok etishi mumkin. Davlatlararo mahsulotlarni alanishini kengaytish

maqsadida qatnashuchi-davlatlar mahsulotga umumiy talablarni kelishuvga ko'ra ishlab chiqishadi va o'rnatishadi.

Uning asosiga quyidagi tamoyillar kiritilgan:

Xavf-xatarlar (xavfli omillar) tahlilini o'tkazish. Jarayon tarkibidagi operastiyalar ro'yxatini tayyorlash, qo'llaniladigan nazorat usullarini bayon etish, ahamiyatga ega bo'lgan xavf-xatarlarni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bosqichlarni aniqlash lozim. Xom-ashyoni olishdan boshlab to yakuniy mahsulotgacha bo'lgan barcha bosqich jarayonlarini to'liq aks ettiruvchi ishlab chiqarish jarayonlarining blok-sxemasi tuziladi. Sxema tuzilganidan so'ng, har bir bosqichda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha mavjud xavfli omillar identifikasiyalanadi ya'ni bunda axamiyatga ega xavflarni aniqlash uchun xavf-xatarlar darajasi aniqlanadi va ularni nazorat qilish uchun zaruriy chora-tadbirlar bayon etiladi. Bu xavf-xatarlarni tahlil qilish HACCP tizimida asosiy bosqichi bo'lib hisoblanadi.

Kritik nazorat nuqtalarini (KNN) o'rnatish. Xavfli omillar ta'siri ehtimolligini minimumga keltirish yoki qaytarilmasligi uchun nazorat qilinishi zarur bo'lgan jarayon bosqichlari va operastiyaning kritik nuqtasi aniqlanadi.

Parametrlarning yuqori qiymatlari (kritik chegaralari)ni o'rnatish. Har bir aniqlangan KNN bo'yicha nazorat chora-tadbirlari qo'llaniladi.

KNN nazorat qilish uchun monitoring tizimini ishlab chiqish. KNN nazorat qilish prostedurasini, kuzatish va o'lchashlarning davriylik tizimini, ya'ni o'rnatilgan chegaralar doirasida KNN holatini tasdiqlash maqsadida aniqlash lozim. Rejalashtirilgan sinovlar yoki o'lchashlar yordamida kritik nazorat nuqtalarini nazorat qilish imkonini beruvchi monitoring tizimi yaratiladi.

Nazoratdagi KNN u yoki bu chegaradan chiqishlari to'g'risidagi monitoring natijalariga muvofiq qo'llaniladigan to'g'rilovchi amallarni aniqlash.

Ushbu tamoyilga muvofiq to'g'rilovchi amallarni qo'llash tartibini ishlab chiqish va uni qo'llash uchun javobgarlarni qayd etish zarur.

HACCP tizimi haqqoniy ishlashini tasdiqlovchi sertifikatlash (tekshirish) prostedurasini ishlab chiqish. To'g'rilovchi amallar va texnologik operastiyalarni hujjatlashtirish va yuritish uchun javobgarlarni tayinlash lozim. Bundan tashqari HACCP tizimining samaradorligini tasdiqlash imkoniyatini beruvchi tekshirish prostedurasini ishlab chiqish kerak.

Ushbu tamoyillarga taalluqli barcha prosteduralar va yozuvlarni tasdiqlash va ularni qo'llash. Parametrlarning yuqori qiymatidan ixtiyoriy og'ishlar bo'yicha haqqoniy to'g'rilovchi amallarni qo'llash to'g'risidagi va HACCP tizimining ishlashi nazorat ostidaligi to'g'risidagi yozuvlarni yuritish. Bunday hujjatli rasmiylashtirish xavfsiz mahsulot ishlab chiqarishni dalolatlash bo'lib hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish uchun sinovni o'tkazish.

Sertifikatlashtirish uchun sinovlar, berilgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun qo'llaniladigan MH larda ko'rsatilgan sinovlarni o'tkazish huquqi O'z SMT da akkreditlangan sinov laboratoriylarida (markazlarida) o'tkaziladi. Sertifikatlashtirish

vaqtida akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari) bo'lmasa, SI yoki SMI haqiqiy natijalarni ta'minlovchi, sinovlarni o'tkazish joyi, tartibi va sharoitlarini belgilaydi.

Sertifikatlashtirish uchun sinovlar, konstruksiyasi, tarkibi va ishlab chiqarish jarayoni, iste'molchiga (buyurtmachiga) taqdim etilayotgan mahsulotlarga aynan o'xshash bo'lgan mahsulot to'pidan (yoki seriyasidan) olingan namunalarida o'tkaziladi. Namunalar soni ularni tanlab olish tartibi, aynan o'xshatish va saqlash qoidalari sertifikatlashtirilayotgan mahsulotlarni MH lari va sinov uslublarida belgilanadi.

So'rovchi, zarur bo'lganda, tarkibi va mazmuni bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tarkibida belgilanadigan namuna (namunalar) ning texnik xujjatini taqdim etadi.

Namunalar (kichik namunalar) ni tanlab olish, belgi qo'yish va tamg'alashni, namunalarni sinash joyiga yetkazishni ta'minlaydigan so'rovchi ishtirokida, SI yoki sinov laboratoriysi amalga oshiradi.

Bunda namunalar (kichik namunalar) ni tanlab olish dalolatnomasi ikki nusxada tuziladi.

Bojaxona ta'minotidagi import mahsulotlaridan namuna tanlab olish, bojaxona idorasining ruxsati bilan uning inspektori va tovar egasi yoki uning ishonchli shaxsi ishtirokida sertifikatlashtirish idorasi xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda namuna (kichik namuna) lar tanlab olish dalolatnomalari uch nusxada tuzilib, ikkinchi nusxasi bojaxona idorasiga topshiriladi.

So'rovchi, shuningdek, SI ga mahsulotni ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishda o'tkazilgan sinov bayonnomalarini (ularni amal qilish muddatlarini hisobga olgan holda) yoki O'z SMT da akkreditlangan yoki tan olingan yurtimizning yoki chet el sinov laboratoriyalari tomonidan bajarilgan sinovlari to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etishi mumkin.

Buyurtmachi iltimosiga ko'ra uning vakillariga sinovlarni tashkil qilinishi va sharoitlari bilan tanishib chiqish imkoniyati berilishi lozim.

So'rovchi o'z mahsulotining sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Bunda laboratoriya sinovlarning maxfiyligini va normal sharoitlarni saqlanishini ta'minlash bo'yicha choralar qabul qilinishi lozim.

Namunalar sinovlarining sifati va ishonchliligi hamda ularni saqlash bo'yicha javobgarlik, texnikaviy layoqatligi va mustaqilligiga akkreditlangan sinov laboratoriyasiga yuklanadi. Sinov bayonnomalari vakolatli mutaxassislar tomonidan imzolanadi va laboratoriya rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil laboratoriya bo'limgan taqdirda sertifikatlashtirish maqsadlari uchun sinovlarni faqat texnikaviy layoqatligiga akkreditlangan sinov laboratoriyalarda SI vakilining nazorati ostida o'tkazishga ruxsat etiladi.

Bunday sinovlarning xolisligi bo'yicha javobgarlik sinov laboratoriysi bilan birga ularni o'tkazishni topshirgan SI ga ham yuklanadi. Bu holda sinov bayonnomalari SI vakillari tomonidan ham imzolanadi.

Sinov bayonnomalari so'rovchiga va SI ga taqdim etiladi. Sinov bayonnomalarining nusxalari sertifikatning amal qilish muddatidan kam bo'lмаган муддат давомида саqlanishi lozim. Bayonnomalarini saqlashning aniq muddatlari bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibida va sinov laboratoriysi hujjatlarida belgilanadi.

Agarda mahsulotning alohida parametrlari bo'yicha sinovlari har xil akkreditlangan sinov laboratoriyalarda (markazlarda) o'tkazilgan bo'lsa, unda mahsulotni belgilangan talablarga muvofiqligini ijobiy bahosi bo'lib zarur bo'lgan barcha ijobiy natijalari sinov bayonnomalarining mavjudligi hisoblanadi.

Sinov natijalari salbiy bo'lganida SI so'rovchiga sertifikatni berishdan bosh tortish sabablarini ko'rsatilgan xulosani beradi.

Takrorlash uchun savollar.

1. HACCP tizimi haqqoniy ishlashini tasdiqlovchi sertifikatlashda nimani tushunasiz.
2. HACCPning prinsiplari nimalardan iborat.
3. "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" faoliyati bo'yicha qanday xalqaro nufuzdagi tashkilotlarni bilasiz?
4. HACCP tizimi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga doir boshqa tizimlardan farqi?

6-Mavzu; Xalqaro standartlar asosida oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlash.

Reja;

1. O'zbekiston Respublikasida halol standartlarni joriy etish sohasida amalga oshirilgan ishlar
2. O'zbekiston Respublikasida halol talablarni joriy etish sohasida amalga oshirilgan ishlar

O'zstandart" agentligi tomonidan 2019 yilning 8 aprel kuni Milliy matbuot markazida Respublikamizda oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligini ta'minlashda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi agentlikning o'rni" mavzusida matbuot anjumani o'tkazilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizlik talablarini o'rnatish maqsadida bugungi kunda texnik jihatdan tartibga solish sohasida bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda

Jumladan, "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdagi PQ-4059-sonli qarorining 2-ilovasi "2019-2021 yillarda texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi" ijrosini ta'minlash, hamda xozirgi kunda qabul qilingan texnik reglamentlarni mazmun va mohiyatini tushuntirish borasida keng targ'ibot ishlarini amalga oshirish bo'yicha tegishli ishlar bajarilmoqda.

Bunda asosiy e'tibor sinov laboratoriyanini xalqaro darajada ta'mirlash va ularni sinov uskunalarini hamda o'lchash vositalari bilan jihozlashdagi ilg'or tajribalarni ommalashtirishga qaratilmoqda.

Dunyo bozorida raqobat kuchli bo'lgan bir paytda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlari tashqi bozorda o'z o'rmini egallab kelmoqda..

Mamlakatlar o'rtasida savdo va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, xalqaro savdodagi to'siqlarni bartaraf etish, hamda xavfsiz va sifatli mahsulot ishlab chiqarish maqsadida xozirgi kunda jami 40 ta texnik reglament qabul qilingan, shulardan 10 ta texnik reglament oziq-ovqat soxasiga taalluqlidir.

Bundan tashqari, "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdagi "Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4059-sonli qarori 4-bandi, 2-ilovasi 2019-2021 yillarda texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi ijrosini ta'minlash, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 martdagি topshirig'ining ijrosini ta'minlash maqsadida, jami 42 ta texnik reglament ishlab chiqish belgilangan, shulardan 11 ta texnik reglament oziq-ovqat soxasiga taalluqlidir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifatini ta'minlash, ichki bozorni sifatsiz oziq-ovqat va boshqa mahsulotlardan muhofaza qilishga qaratilgan qonun hujjatlari, Yevropa va Bojxona ittifoqi, hamda MDX davlatlari reglamentlari normalari va halqaro standartlar talablari bilan uyg'unlashtirishga alovida e'tibor qaratilgan. Buning natijasida Texnik reglamentlar asosida rasmiylashtirilgan sinov bayonnomalari chet davlatlarda tan olinishi, hamda sifatsiz mahsulotlarni olib kirish, ishlab chiqarish va sotish xavfini nazorat qilish tartibi o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasida "Xalol" standartlarini qabul qilish va amaliyotga kiritish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda ushbu standartlarga muvofiq milliy sertifikatlashtirish tizimini yaratish ishlari boshlangan.

Respublikamizda "Xalol" standartlarini qo'llanilishi ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

"Xalol" belgisi ostida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning nazorati amaldagi talablarga muvofiq muvofiqlik sertifikatini bergen idora tomonidan amalga oshiriladi.

"O'zstandart" agentligi tomonidan ichki bozorni sifatsiz mahsulotlardan himoya qilish va sifatsiz mahsulotlar to'g'risida iste'molchilarini xabardor qilish maqsadida "Nazorat xaridini o'tkazish" tartibi ishlab chiqildi. Bugungi kunda ushbu tartib tasdiqlash jarayonida. Nazorat xaridi tartibida bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning sifati va xavfsizligi o'rganilishi va yaroqsizlik holatlari aniqlansa ommaviy axborot vositalari orqali va ijtimoiy tarmoqlarda bu haqda ma'lumotlar berilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasida halol standartlarni joriy etish sohasida amalga oshirilgan ishlar

Ma'lumki, bugungi kunda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalarida iste'molchilar talablari ortib bormoqda. Bu o'z navbatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarni turli ixtiloflardan (shubxalar) holi holda xavfsiz va ishonchli bo'lishiningta'minlashni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, xozirda mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan uzviy bog'liq jarayonlarda "Halol" terminiga axamiyat qaratilib, islomiy va xavfsizlik, sanitari-gigiyenik qoidalar asosida halol talablar ishlab chiqildi.

Misol uchun: halol talablar asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga Yevropa ittifoqi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, Xindiston, Lotin Amerika, Yangi Zellandiya va Tailand davlatlari extiyoji ortib borayotganligi.

Shuningdek, Butun dunyoda musulmonlarning kun sayin ortib borishi, taxminan 1.8 mlrd odam Yer aholisining 24 foizi halol belgisi asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga extiyoyi sezmovda.

Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, 2025 yilga borib, halol talablar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni umumiyligi ulushi dunyoda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarni kamida 20 foizini 2030 yilda borib esa, bu ko'rsatkich umumiyligi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni 25 foizini tashkil etadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda "Halol turizm" dunyoda jadal suratlarda rivojlanayotgan soha bo'lib, halol turizm bozorining yillik xajmi 2017 yilda 126 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020 yilda borib, kamida 3 barobarga ortishi ya'ni 378 mlrd AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, xozirda halol standartlar talablariga muvofiq mahsulotlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish islom davlatlari o'rtasida mahsulotlarni eksport va import jarayonlarida yuzaga keladigan texnik to'siqlarni bartarf etish imkonini beradi.

OIC/SMIIC (Islom Xamkorlik Tashkiloti/Islom Davlatlari Standartlashtirish va Metrologiya Instituti) tashkiloti va uning asosiy vazifalari OIC/SMIIC - The Organisation of Islamic Cooperation/The Standards and Metrology Institute for Islamic Countries (Islom Hamkorlik Tashkiloti/Islom Davlatlari Standartlashtirish va Metrologiya Instituti). 2010 yil avgust oyida tashkil topgan. Tashkilotning shtab kvartirasi Turkiya davlatining Istanbul shahrida joylashgan. Xozirgi kunda ushbu tashkilotga 57 ta davlatlar a'zo. Islom Hamkorlik Tashkiloti 25 sentyabr 1969 tashkil topgan.

Birinchi SMIIC standartlarini ishlab chiqarish jarayonlarida Eron, Turkiya, Malayziya va Quvayt davlatlari ishtiroy etgan.

Xozirda SMIIC tashkilotida standarlarni ishlab chiqarish jarayonlari 39 ta islomiy davlatlar vakillarida iborat texnik qo'mitalar tomonidan ishlab chiqariladi.

SMIIC tashkilotining Istanbulda bo'lib o'tgan 2012 yil may oyidagi 4-Boshqaruvin Kengashi yig'ilishida texnik qo'mitalarning ishlash tartibi bo'yicha direktivalar qabul qilindi va quyidagi texnik qo'mitalar tashkil etildi:

TS-1 : Halol ozuqa masalalari qo'mitasi;

TS-2: Halol kosmetika qo'mitasi;

TS-3: xizmat joylarini sertifikatlashtirish qo'mitasi;

TS-4: qayta ishlov beriladigan energiya masalalari qo'mitasi;

TS-5: turizm va shunga o'xshash sohalar qo'mitasi;

TS-6: qishloq ho'jaligi faoliyatlari qo'mitasi;

TS-7: logistika qo'mitasi;

Shuningdek akkreditasiya terminologiya va moliya qo'mitasi ham tashkil qilingan.

OIC/SMIIC tashkilotining asosiy maqsadi:

- tashkilotga a'zo davlatlar orasida o'zaro tan olinadigan yagona standartlarni joriy qilish.

- islom davlatlari orasida o'zaro tan olinadigan standartlar yordamida tijoratdagi texnik to'siqlarni bartaraf etish.

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lган ishonchni orttirish maqsadida akkreditasiya va sertifikatlashtirish talablarini belgilash.

- standartlashtirish, metrologiya va akkreditasiya borasida boshqa bunda muhtoj davlatlarga islom qardoshligi shiori ostida texnik yordam ko'rsatish va o'quv seminarlarini tashkillashtirish.

OIC/SMIIC, halol oziq ovqat, kosmetika, servis xizmatlari, energiya qayta ishlash resurslari, turizm, qishloq xo'jaligi, logistika va akkreditasiya sohalarida texnik ko'mitalar tashkil qilingan va faoliyatlarini davom ettirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida halol talablarni joriy etish sohasida amalga oshirilgan ishlar

O'zbekiston Respublikasidagi mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport ko'lmini oshirish maqsadida Respublika va uning xududiy markazlari xodimlaridan iborat 20 nafar xodimlar Turk Standartlari Institutining xalqaro ekspertlari tomonidan TS OIC/SMIIC 1:2011 "Halol oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha umumiyoq qo'llanma" hamda ISO 22000:2005 "Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimlari.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilish tizmasidagi barcha tashkilotlarga qo'yiladigan talablar" nomli standartlari talablari bo'yicha tashkil etilgan uquv kurslariga o'qitildi.

"O'zstandart" agentligi tomonidan 5 ta jumladan:

1. TS OIC/SMIIC 1:2011 "Halol oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha umumiyoq qo'llanma" standarti O'z DSt 3286:2018 taxriri bilan;

2. TS OIC/SMIIC 2:2011 "Halol sertifikatlashtirish idoralariga qo'yiladigan talablar" standarti O'z DSt 3301:2018 taxriri bilan;

3. TS 13571:2013 "Halol ovqat va ichimliklar tayyorlanadigan, saqlanadigan va sotiladigan joylar uchun O'z DSt 3286:2018 qo'llanishining muayyan talablari" standarti O'z DSt 3300:2018 taxriri bilan;

4. MS 2200: PART 1: 2008 "Islom iste'mol mahsulotlari-1 qism. Kosmetika va shaxsiy gigiyena-umumiyoq o'llanma" standarti O'z DSt 3302:2018 taxriri bilan;

5. MS 2200: PART 2: 2013 "Islom iste'mol mahsulotlari-2 qism. Hayvonlar suyagidan, terisidan va junidan foydalanish-umumiyoq o'llanma" standarti O'z DSt 3303:2018 taxriri bilan

O'zbekiston Respublikasida milliy standart sifatida "O'zstandart" agentligining 2018 yil 20 martdag'i №05-937 son qarori bilan qabul qilindi.

Shuningdek, oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarayotgan va halol talablar asosida sertifikatlashtirishga talabgor bo'lgan korxonalar uchun menejment tizimlarini namunaviy xujjatlari ishlab chiqildi va "O'zstandart" agentligi saytiga joylashtirildi.

Bundan tashqari halol standartlar talablari asosida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi nizomi ishlab chiqilmokda.

TS OIC/SMIIC 1:2011 (O'z DSt 3286:2018) "Halol oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha umumiyoq o'llanma" standartining talablari.

Ushbu standart "O'zstandart" agentligining 2018 yil 4 yanvardagi №05-915 sonli qarori asosida O'z DSt 3286:2018 taxrir raqami ostida O'zbekiston Respublikasida milliy standart sifatida qabul qilingan bo'lib, halol oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish, sinflarga ajratish, saqlash, qadoqlash, yorliqlash, tashish va xizmatlar ko'rsatish jarayonlariga talablar qo'yadi.

Shuningdek, mazkur standartning asosiy bo'limlari, Kirish, Tayyorlash, Ishlov berish, Sinflarga ajratish, Qadoqlash, Yorliqlash, Logistika, Saqlash va Xizmatlar ko'rsatishlardan iborat.

Standartning ishlab chiqishda qo'yidagi standartlardan foydalanilgan, jumladan, CODEX STAN 1-1985 "Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg'lash uchun umumiyoq standart" bunda mahsulot nomi, mahsulot tarkibidagi qo'shimchalar nomi, mahsulot massasi, ishlab chiqaruvchi korxona nomi va manzili, ishlab chiqaruvchi korxona joylashgan davlat nomi, partiya tartib raqami, saqlanish muddati va saqlash bo'yicha talablar va qo'llash bo'yicha ma'lumotlar talab qo'yiladi.

CAC/RCP 1-1969 "Oziq-ovqat gigiyenasining umumiyoq prinsiplari" Xalqaro kodeks amaliyoti tavsiyasi, jumladan, oziq-ovqat gigiyenasi prinsiplari, inson iste'moli uchun ishonchli ozuqalar bo'yicha maqsadlar, oziq ovqat havfsizligi NASSR yo'nalishi, ozuqa zanjirida gigiyena talablari bo'yicha qo'llanmalar keltirilgan.

CAC/RCP 58-2005 To'sht uchun gigiyena qoidalari", ISO 22000:2005 "Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi bo'yicha boshqaruva tizimlari-barcha tashkilotlarga doir talablar" va ISO 22005:2007 "Oziq-ovqat mahsulotlari tizimida tekshiriluvchanlik tizimini loyihalashtirish va qo'llash uchun asosiy prinsiplar va talablar" nomli standartlar talablaridan foydalanilgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Halol standarti haqida tushunchalar bering.
2. Halol standarti bizga nima uchun kerak.
3. OIC/SMIIC tashkilotining asosiy maqsadi nimalardan iborat.

7-Mavzu: Texnik jixatdan tartibga solish davlat tizimi asoslari.

Reja:

1. Texnik jihatdan tartibga solishning qonuniy asosi.
2. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining tuzilmasi.
3. Texnik jihatdan tartibga solish tizimining asosiy tamoyillari
Texnik jihatdan tartibiga solishning asosiy maqsad va vazifalari

Texnik jihatdan tartibiga solishning asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga mahsulot (xizmat)larning harakatlanish yo'llarida xavfsizlik darajasini optimallashtirishda barcha balanslashtirilgan choralar ni bevosita ishlab chiqish va qo'llash ma'muriy aralashuvlarni minimallashtirishni ta'minlash bo'lsada, bir tomondan bozorda qalbaki va xavfli mahsulotlar (xizmatlar)ni paydo bo'lishini barxam berish bo'lsada, ikkinchi tomondan ishlab chiqaruvchilar uchun texnik to'siqlarni minimallashtirish bo'lib hisoblanadi.

Texnik me'yorlashtirish sohasida davlat boshqaruving vazifasi majburiy texnik talablarni bajarilishi va qo'llanilishi (ishlab chiqish va tasdiqlash)ni o'rnatish sohasida huquqiy boshqarish munosabati bo'lib hisoblanadi.

Texnik jihatdan tartibga solish xavfli mahsulotlardan iste'molchilarni himoya qilish va ulardan foydalanishda mahsulot xavf-xatari tahliliga asoslanuvchi bozorda ishlab chiquvchilar va iste'molchilarning o'zaro qiziqishlarini zaruriy balansiga erishishga yo'naltirilgan.

Texnik reglamentlarga o'tishdan yana bir asosiy maqsad – hozirgi paytda turli xil hujjatlarda o'rnatilgan shu jumladan, turli xil davlat idoralari va xo'jalik boshqaruvlari qabul qilgan xavfsizlik bo'yicha talablarni yagona hujjatda to'plashdir.

"Texnik jihatdan tartibiga solish to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari belgilangan bo'lib, va u quyidagilardan iborat:

inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash;

atrof muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanimishini ta'minlash;

savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish;

mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi xususida iste'molchilarni chalg'ituvchi harakatlarning oldini olish.

Ushbu Qonunning maqsadi mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash va bajarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Texnik jihatdan tartibga solishning qonuniy asosi

Xalqaro tajribada mahsulot, hizmatlar va jarayonlarga bo'lgan majburiy talablar texnik reglamentlarda belgilanadi. Texnik reglamentlarga tegishli qonunlar, direktivalar va hukumat idoralari tomonidan berilgan farmoyishlar kiradi. Standartlar talablari esa

majburiy emas. Shu sababli texnik reglamentlar amaldagi qonunchilikda muhim ahamiyatga ega.

Butunjahon savdo tashkilotining “Savdodagi texnik to’siqlar bo'yicha kelishuv”i talablarini bajarish maqsadida, “O’zstandart” agentligi, Sog’liqni saqlash vazirligi, Davlat arxitektura va qurilish qo’mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo’mitasi tomonidan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Butunjahon savdo tashkilotiga kirish maqsadida Respublikamizda olib borilayotgan siyosat, avvalambor ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini, eksport salohiyotini oshirishga yo’naltirilgan.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Butunjahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha Idoralalararo kengashni tashkil etish to'g'risid”gi 1995 yil 10 noyabrdagi 45-sonli va “2007 yil uchun O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qonun loyihibarini ishlab chiqish bo'yicha ish Rejasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2006 yil 22 dekabrdagi 264-sonli qarorlarini bajarish maqsadida ishlab chiqilgan va 2009 yilning 23 aprelda qonuniy kuchga kirgan “Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni, bu yo’nalishda olib borilayotgan ishlarning debochasidir.

O’zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida” Qonuni 2008 yil 11 noyabrdagi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan bo’lib, 2009 yil 27 martda Senat tomonidan maqullangan.

Ushbu qonun quyidagi boblar va moddalardan iborat:

- 1-bob. Umumiy qoidalar (1 - 6-moddalar);
- 2-bob. Davlat organlarining va boshqa organlar hamda tashkilotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari (7 - 14-moddalar);
- 3-bob. Texnik reglamentlar (15 - 23-moddalar);
- 4-bob. Yakunlovchi qoidalar (24 - 28-moddalar).

Qonuning 1-moddasiga muvofiq ushbu Qonunning maqsadi mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo’llash va bajarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat deb ifodalangan.

“Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida”gi Qonunda quyidagi atamalar va ta’riflar keltirilgan:

texnik jihatdan tartibga solish – mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo’llash va bajarish;

mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi – mahsulotning, uni ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), saqlash, tashish, realizatsiya qilish va utilizatsiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko’rsatiladigan xizmatlarning holati bo’lib, bunda insonning hayotiga, sog’lig’iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar etkazilishi ehtimoli bilan bog’liq yo’l qo’yilmaydigan xavf mavjud bo’lmaydi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar – texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya-sanitariya,

fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalari va qoidalari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;

texnik reglament – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

umumiyltexnik reglament – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdagil mahsulotlar, ishlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

maxsus texnik reglament – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiyltexnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

savdodagi texnik to'siqlar – mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo'lgan tafovutlari yoki o'zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to'siqlar.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining tuzilmasi

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlar faoliyatining asosiy yo'naliishlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Ushbu tizimni shakllantirish, takomillashtirish va Qonun bilan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari tayinlangan (4.1-rasm):

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining umumiyl maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o'z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning xavfsizligiga doir, ularda inson hayoti va sog'ligi uchun zararli moddalar, kasallik tug'diruvchi organizmlarning mavjudligi, kasallik tashuvchilarning kirib kelishi yoki tarqalishining oldini olish, tibbiyot buyumlari, tibbiy texnika va dori vositalarini ishlab chiqarish hamda qo'llash bo'yicha majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi shaharsozlik faoliyatida mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof-muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilishda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan vazifalarni amalga oshiradi.

Qonunda texnik reglamentlarni ishlab chiqish jarayoni ushbu soha ekspert kengashlariga yuklatilgan. Ishlab chiqilgan texnik reglament loyihalarini ekspertizadan

o'tkazishni esa vakolatli davlat organlari huzurida tashkil etiladigan ekspert komissiyalari bajaradi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida me'yoriy xujatlarni to'plash va ular to'g'risida ma'lumotlarni etkazish masalalarni tizimli ravishda hal etish maqsadida davlat fondi tashkil qilindi.

Texnik jihatdan tartibga solish tizimining asosiy tamoyillari

O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuniga binoan texnik jihatdan tartibga solishning asosiy printsiplari belgilangan, bular:

texnik reglamentlarni qo'llashning majburiyligi, chunki texnik reglament bir turdag'i mahsulot, ish va xizmatlar xavfsizligiga majburiy talablarni o'matuvchi normativ hujjat hisoblanadi;

texnik reglamentlarni qo'llashning bir xilligi, ya'ni texnik reglament O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qo'llaniladi;

texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlarga muvofiqligi.

Ta'rif bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

texnik reglamentlar;

standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar;

sanitariya, veterinar-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari;

shaharsozlik, ekologiya normalari va qoidalari;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;

texnik reglamentlarning, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va e'lon qilish tartibi to'g'risidagi axborotning ochiqligi.

"O'zstandart" agentligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning so'rovlariga ko'ra:

amaldagi, ishlab chiqilayotgan va qabul qilingan texnik reglamentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

mahsulot, ish va xizmatlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash tartib-taomili to'g'risidagi ma'lumotlarni;

O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi xalqaro tashkilotlarga a'zoligi va xalqaro shartnomalardagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlarni;

qabul qilingan va ishlab chiqilayotgan texnik reglamentlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish yuklatilgan.

Texnik reglament quyidagi yo'naliishlar bo'yicha qabul qilinishi mumkin: biologik xavfsizlik; mexanik xavfsizlik; kemyoviy xavfsizlik; yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik; yong'in xavfsizligi; elektr xavfsizligi; mashina va uskunalarni ishlatish (ulardan foydalanish) hamda utilizatsiya qilish xavfsizligi; binolar, inshootlardan va ularga tutash hududdan foydalanish xavfsizligi; ekologik xavfsizlik; veterinariya

xavfsizligi; sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligi; portlash xavfsizligi; axborot xavfsizligi; o'lchovlar va sinovlar usullarining bir xilligini ta'minlash, shuningdek mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga qo'yiladigan boshqa talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

O'z TJTSĐT ning abbreviatura ko'rinishidagi davlat tilida qisqartirilgan nomlanishi O'z TJTSĐT (O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi) deb belgilanadi.

O'z TJTSĐT ga tarmoqlararo standartlashtirish tizimining 18 sinfi berilgan.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondi "O'zstandart" agentligi tomonidan hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan shakllantiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondi umumiyl va maxsus texnik reglamentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, ro'yxatga olish tartibi

Mahsulotlar, ishlar, xizmatlarga umumiyl texnik reglamentlar va maxsus texnik reglamentlarni, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartishlar va qo'shimchalarni hamda ularni bekor qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish umumiyl qoidalarini belgilaydi hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari, texnik jihatdan tartibga solish sohasida o'z vakolatlari doirasida faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda texnik reglamentlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va qo'llash bilan shug'ullanuvchi xo'jalik sub'ektlari amalga oshiradi.

Har qanday mamlakat hududidan import qilinadigan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga texnik reglamentlar tomonidan taqdim etiladigan tartib mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan o'xhash tovarlarga va boshqa mamlakatda yaratilgan xuddi shunday tovarlarga taqdim etiladigan tartib kabi qulay bo'lishi kerak.

Texnik reglamentlar xalqaro savdoda ortiqcha to'siqlarni yuzaga keltirmasligi yoki ularning yuzaga kelishiga olib kelmasligi va shu maqsadda texnik reglamentlar tomonidan, xavfsizlikni ta'minlashga oid qonuniy maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgandan ko'ra yanada chegaralovchi ta'sir savdoga nisbatan ko'rsatilmasligi kerak.

Texnik reglamentlar, xavf darajasini hisobga olgan holda belgilanadigan muvofiqlikni baholash qoidalari va shakllarini, texnik jihatdan tartibga solish har bir ob'ektiga oid muvofiqlikni baholash uchun oxirgi muddatlarni, muvofiqlikni tasdiqlash uchun zarur bo'lgan nazorat, sinovlar va o'lchovlar usullarini, shuningdek atamalarga, o'rov-idishga, tamg'alarga yoki yorliqlarga hamda ularni aks ettirish qoidalariiga doir talablarni va davlat nazoratini amalga oshirish tartibini o'z ichiga olishi mumkin.

Zararli mikroorganizmlar va qo'shimchalar, kasalliklar, kasallik tarqatuvchilar, ifloslantiruvchi moddalar, toksinlar, zararkunandalar va begona o'simliklar kirib kelishi yoki tarqalishi munosabati bilan yuzaga keladigan insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar etkazilishi xavfi darajasi hamda zararni bartaraf etish hisobga olingan

holda texnik reglamentlarda sanitariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlarni ham ko'rsatiladi.

Sanitariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlarida quyidagilar belgilab qo'yiladi:

- mahsulotga, uni sinash, tekshirish tartib-taomiliga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya xulosasini berish tartibiga qo'yiladigan majburiy talablar;
- karantin va veterinariya-sanitariya qoidalari, shu jumladan hayvonlar va o'simliklarni tashish bilan bog'liq talablar;
- namunalarni olish usullari va tartib-taomili, insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar etkazilishi xavfini tadqiq etish hamda baholash usullari, hamda ekologik normalar va boshqa talablar.

Texnik reglamentlarda ayrim toifadagi fuqarolar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlaydigan, hamda transchegaraviy xavfli ishlab chiqarish ob'ektlariga oid xavfsizligiga qo'yiladigan maxsus talablar bo'lishi mumkin.

Mahsulotlar, ishlar va xizmatlardan uzoq muddat foydalanilish oqibatida va (yoki) yo'l qo'yiladigan xavf darajasini aniqlash imkoniyatini bermaydigan boshqa omillar ta'siri sababli insonning hayoti va sog'lig'iga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar etkazadigan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga qo'yiladigan talablar texnik reglamentlarda bo'lmasligi kerak. Shu bilan birga texnik reglamentlarda ehtimol tutilgan zarar to'g'risida hamda insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar etkazilishi xavfi qaysi omillarga bog'liq bo'lsa, shu omillar haqida iste'molchilarni xabardor qilishiga doir talablar bo'lishi mumkin.

Texnik reglamentlarga kiritiladigan o'zgartishlar va qo'shimchalar hamda ularni bekor qilish bo'yicha takliflar texnik reglamentlarni ishlab chiqish uchun belgilangan qoidalari bo'yicha ishlab chiqiladi.

Texnik reglamentlar quyidagi tuzilmali elementlarni o'z ichiga olishi mumkin: titul varag'i; so'z boshi; qo'llanish doirasi; ta'riflar; himoyalovchi izoh; bozorga kirish qoidalari; texnik talablar; muvofiqlik prezumptsiyasi; muvofiqlikni tasdiqlash; muvofiqlikni baholash bo'yicha ishlar natijalarini o'zaro tan olish; o'tish davri; davlat nazoratini amalga oshirish tartibi; ilova.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi. "O'zstandart" agentligi texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va boshqa davlat xo'jalik boshqaruvi organlar asoslangan takliflari bo'yicha shakllantiradi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ekspert kengashlar texnik reglamentlar loyihasini ishlab chiquvchilar bo'ladi. Ekspert kengashlar texnik reglamentlar loyihasini ishlab chiqishda O'z DSt 1.1, O'z DSt 1.6, O'z DSt 1.24, O'z DSt 18.0, O'z DSt ISOG'IEC 51, O'z DSt 1052, O'z RH 51-010 me'yoriy hujjatlari hamda mahsulot, ishlar va xizmatlarni xavfsizlikga milliy va

xalqaro talablarga doir xavfsizlik talablarini belgilanadigan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ va normativ-huquqiy hujjatlarni amal qiladi.

Texnik reglamentlar loyihasini ishlab chiqish uchun asos sifatida xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy va O'zbekiston davlat standartlardan, hamda boshqa davlatlarning ekvivalent (uyg'unlashtirilgan) texnik reglamentlardan to'liq yoki qisman foydalansa bo'ladi.

O'z DSt 1.7 va O'z DSt ISOG'IEC 21 standartlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan (kiritilgan) shartda ishlab chiqaralayotgan standarlardan belgilangan darajada foydalanishga ruxsat beriladi. Bunda belgilangan tartibda texnik reglamentlarda ko'rsatilgan standartlar matnlari to'liq yoki qisman keltiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- manfaatdor foydalanuvchilar loyihasi bilan tanishishga imkon berish uchun aniq texnik reglamentni ishlab chiqish to'g'risida "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasini axborot nashrda bildirishnomani ishlab chiqish vaqtidan ikki haftadan kechikmay dastlabki boqichda chop etadi;

qachon hali tuzatishlarni kiritish va mulohazalar inobatga olingan bo'lishi mumkin bo'lganda, ishlab chiqishining dastlabki boqichida bildirishnomaga chop etadi;

rasmiy talab asosida to'liq tavsiyflar yoki amaldagi xalqaro standartlar bilan jiddiy farqlanishlarni ko'rsatib, ishlab chiqilayotgan texnik reglament loyiha nusxasi manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etadi;

manfaatdor taraflarga mulohazalarini tayyorlash, muhokama qilish va ishlab chiquvchi ushbu muhokamani inobatga olish uchun kamshitishsiz vaqtini ajratib beradi.

Ishlab chiquvchi texnik reglamentiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqarish usuli yoki tovarlarni moslashtirishga ishlab chiqaruvchiga vaqt berish uchun texnik reglamentlarni chop etish va ular kuchga kirish orasida aniq vaqtini nazarda tutadi.

Texnik reglament loyihasini kelishish tartibi. Texnik reglament loyihasi oxirgi tahrirni ishlab chiqish tugatishni ekspert kengash bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomaga ekspert kengashning hamma a'zolari imzolaydi.

Texnik reglament loyihasi ekspert kengashning bayonnomasi qaroriga muvofiq hamma manfaatdor tashkilotlar kelishilgan deb hisoblanadi, hollari bundan mustasno, agar:

ekspert kengashning tarkibiga asosiy manfaatdor tashkilotlarning vakil (vakillari) kiritilmagan bo'lsa;

Kelishish 30 kun ichida yozma ravishda o'tkaziladi.

Umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash tartibi. Ekspert kengashlar qoidada belgilangandek, komplektida ekspert kommissiyasi tomonidan ekspertizani o'tkazish uchun (o'z vakolat doirasida) "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga texnik reglamentlar loyihalarni kiritadi:

ilova xat;
loyiha risola holda ikkita nusxada davlat va rus tilida;
loyhani ishlab chiqish to'g'risida bildirishnomani nusxasi;
ishlab chiqish va texnik reglamentni joriy etish texnik-iqtisodiyot asoslanishi;
ilova, texnik reglamentga qo'yiladigan talablarni riosa etishni ta'minlaydigan, mintaqaviy (Yevropadagi), davlatlararo, xalqaro standartlar ro'yxatini yoki boshqa standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni o'z ichiga oladigan;
taqrizlar ma'lumoti;
tushuntirish xati;
kelishmovchilik to'g'risida ma'lumot (kelishmovchilik mavjudligida);
texnik reglamentni joriy etadigan va ishlab etadigan - davlat va xo'jalik boshkaruvi organlar tomonidan tasdiqlangan texnik reglamentni joriy etish bo'yicha texnik-tashkiliy chora-tadbirlarning rejasi.

Hamma sanab chiqilgan hujjatlar, hamda boshqa kerakli hujjatlar, ilova xatdan tashqari elektron shaklda ham taqdim etiladi.

Ekspert kommissiyasining ijobiy xulosasida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlashga kiritish uchun "O'zstandart" agentligiga Vazirlar Mahkamasining qarorni loyihasi, ekspert kommissiyasining xulosasi bilan texnik reglamentlar loyihasi, tushuntirish xatni muqovalatilgan holda turta nusxada kiritiladi.

Mulohazalar mavjuligida, texnik reglamentlar loyihasi ekspert kommissiyasining xulosasi bilan oxirga etkazish uchun ishlab chiquvchiga qaytariladi.

Texnik reglamentlar, ularga o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish va bekor qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Tasdiqlangan texnik reglamentlar, ularga o'zgartish va Go'yoki qo'shimchalar, hamda ularni tasdiqlash bo'yicha tashkiliy – boshqara biladigan hujjatlar qoidada belgilangan tartibda davlat fondini komplektlash uchun yuboriladi.

Maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlash tartibi. Ekspert kengashlar qoidada belgilangandek, komplektida ekspert kommissiyasi tomonidan ekspertizani o'tkazish uchun (o'z vakolat doirasida) "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga texnik reglamentlar loyhalarni kiritadi.

Ekspert kommissiyasining ijobiy xulosasida "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolat doirasida texnik reglamentlarni tasdiqlaydi yoki tegishli davlat boshqaruva organlariga tasdiqlash uchun yuboradi.

“O’zstandart” agentligi xo’jalik boshqaruvi organlar tomonidan ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni tasdiqlaydi.

Texnik reglamentlar vakolatli va boshqa davlat organlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qarorlar (buyruqlar)i bilan tasdiqlanadi.

Mulohazalar mayjudligida, texnik reglamentlar loyihasi ekspert kommissiyasining xulosasi bilan oxirgi etkazish uchun ishlab chiquvchiga qaytariladi.

Tasdiqlangan texnik reglamentlar, ularga o’zgartish vaG’yoki qo’shimchalar, hamda ularni tasdiqlash bo'yicha tashkiliy boshqariladigan hujjatlar qoidada belgilangan tartibda davlat fondini komplektlash uchun yuboriladi.

Texnik reglamentni amalga kiritish. Umumiy va maxsus texnik reglamentlar rasmiy e’lon qilingan paytdan e’tiboran kamida olti oy o’tgach amalga kiritiladi. Texnik reglamentni kiritish sanasi ekspert kengashlar tomonidan o’rnataladi.

Texnik reglamentlar vakolatli va boshqa davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari qaror (buyruqlar) va xo’jalik yurituvchi sub’ektlari buyruq (farmoyish)lar bilan joriy qilinadi.

Texnik reglamentlarni belgilash. Texnik reglamentlar davlat reestrga kiritilganda, tasdiqlash darajasiga qaramasdan texnik reglamentlar belgilashi “O’zstandart” agentligi tomonidan beriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Texnik jihatdan tartibiga solishning maqsad nimalardan iborat?
2. Texnik jihatdan tartibiga solishning vazifalari nimalardan iborat?
3. O’zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi?
4. Texnik reglamentlarning xavfllilik darajasi?

M U N D A R I J A

№	Ma’ruza mashg’ulot mavzulari	bet
1	Kirish. Fanning maqsad va vazifalari. Standartlashtirish va sifat	4
2	Standartlashtirish tizimi. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligida standartlashtirish	12
3	Oziq-ovqat mahsulotlari standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va tadbiq etish.	18
4	Sertifikatlashtirish.	26
5	Oziq-ovqat va sertifikatlashtirish tartibi.	35
6	Xalqaro standartlar asosida oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta’minlash.	41
7	Texnik jixatdan tartibga solish davlat tizimi asoslari.	46
	Mundarija	55
	Adabiyotlar ro’yxati	56

Adabiyotlar ro'yxati

1.	O'z DSt 1.0:1998 O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar.
2.	O'z RST 8.001-98 O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. O'lchamlar birligini ta'minlash tizimi. Asosiy qoidalar.
3.	Стандартизация, метрология, сертификация и управление качеством. Т., 2002.
4.	Kantere V.M., Matison V.A. i drugie. Sistemy menedjmenta bezopasnosti rishcheyoy produksii na osnove mejdunarodnogo standarta ISO 22 000. M.:2006.
5.	Крылова Г.Д. Основы стандартизации, сертификации и метрологии. М., Юнита-Дана, 2001
6.	Bo'riyev X.Ch., Rizayev R.M.- "Qishloq xo'jaligida standartlash metrologiya va sertifikatlash asoslari". Т. "Mehnat", 1999.
7.	Сергеев А.Г., Латышев М.В., Терегеря В.В. Метрология, сертификация и стандартизация. М., Логос, 2001
8.	Купряков Е.М. "Стандартизация и качество промышленной продукции". М.: Высшая школа, 1995.
9.	R.I.ISAYEV, U.N.KARIMOVA. Metrologiya, standartlashtirish va ertifikatlashtirish (Darslik). -T.: "Fan va texnologiya", 2011,496 bet.
10.	Анализ пищевых продуктов : [учеб. пособие] / Н. В . Л акиза, Л. К . Н еудачина ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2015. — 188 с.
11.	"Oziq-ovqat mahsulotlari ekspertizasi" fanidan o'quv uslubiy majmua. NMTI- 2018
12.	Skurixin I.M., Nechaev A.P. Vse o pishe s tochki zreniya ximika.-M.: Vsshaya shkola, 1991
13.	Xaydar-Zade L.N. Pishevaya ximiya. Ma'ruzalar matni. Buxoro 2001 y.